

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI TAHLILI



2024



© 2024 Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki / Jahon Banki

1818 H Street NW

Vashington, 20433

Internet: www.worldbank.org

Barcha huquqlar himoyalangan

Vashingtonda chop etilgan va ishlab chiqarilgan.

Ilk chop etilgan: May 2024

Ushbu hujjat Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki/Jahon banki xodimlarining mahsulidir. Unda o'z aksini topgan xulosalar va sharhlar tamomila uning muallifi(lar)ga tegishli bo'lib, ular hech qanday tarzda Jahon banki, uning bo'linmalari yoki Ijrochi direktorlar kengashi a'zolari yoxud ular vakil bo'lgan mamlakatlarga taaluqli deb hisoblanmasin.

Jahon banki ushbu nashrga kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga kafolat bermaydi va ulardan foydalanishning har qanday oqibatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Mazkur nashrdagi material mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Ruxsatsiz butun hujjatni yoki uning qismlaridan nusxa olish va/yoki uchunchi shaxsga taqdim etish amaldagi qonunchilikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki/Jahon banki o'z tahlil nashrlari to'g'risida ma'lumot tarqatishni qo'llab-quvvatlaydi va odatda tegishli so'rov kelib tushganda, matnlarning qismlarini ommalashtirishga qisqa vaqt ichida ruxsat beradi.

Tashakkurnoma

Mazkur Mamlakat bo'ylab gender tengligi tahlili (CGA/Country Gender Assessment) Jahon banki tomonidan Uilyam Seyts, Odri Saks va Emi Sevimli boshchiligidagi guruh hamda O'zbekiston hukumati tomonidan: O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi ishtirokida tayyorlangan. Tahliliy ko'mak Sevilya Murodova, Robert Vrobel, Gulrano Tlepova, Avralt-od Purevjav va Charlz Aleksandr Poznyak tomonidan taqdim etildi.

Ana Mariya Munoz Boudet va Patrisiya Fernandesga ekspertlik bahosi uchun jamoa o'z minnatdorchiligini izhor etadi. Shuningdek, Salman Zaidi, Ambar Narayan, Varalakshmi Vemuru, Marko Mantovanelli, Gulnora Kamilova Ikuko Uochi, Obert Pimhidzai va Raximjan Assangaziyevning keng ko'lamli yo'l-yo'riqlari hamda qo'llab-quvvatlashlari uchun bag'oyat minnatdormiz.

Ushbu tahlil hukumat hamkorlari bilan yaqin hamkorlikda tayyorlangan. Jamoa mazkur ishlanmani o'z bilimlari va g'oyalari hamda jamoaga taqdim etgan ma'lumotlari bilan qo'llab-quvvatlagan ko'plab hukumat rasmiylariga o'z minnatdorchiligini bildirib qoladi. Xususan, jamoa Prezident Administratsiyasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Statistika agentligi, Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, Taraqqiyot strategiyasi markazi rahbariyati va xodimlariga tashakkurlarini yetkazib qoladi. O'z bilimlari bilan o'rtoqlashgan va ushbu tahlil mazmuni va davlat siyosati yuzasidan yakuniy tavsiyalarini shakllantirishga yordam bergan bir qator manfaatdor tomonlarga ham o'z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz. Va nihoyat, ayniqsa gender.stat.uz veb-manzilidagi gender statistikasi portali administratorlariga alohida minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz.

Mundarija


Tashakkurnoma.....	3
Umumiy ma'lumot	5
I — Kirish	12
O'zbekistonning o'zgarayotgan siyosat manzarasi	12
Imkoniyatlar va qiyinchiliklar	13
II — Gender me'yorlari va ijtimoiy tasavvurlar	14
III — Inson resurslari.....	19
Ta'lim.....	20
Sog'liqni saqlash.....	25
IV — Iqtisodiy imkoniyatlar.....	29
Bandlik va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish	30
Qonunchilik bazasi	38
Xotin-qizlarning korxonalardagi va tadbirkorlikdagi roli.....	39
V — Ovoz va agentlik	42
Milliy va mahalliy darajalarda jamoat hayotida ishtirok.....	43
Genderga asoslangan zo'ravonlik	45
Nikoh va ajrim	48
VI — Tavsiyalar.....	51
VII — Tanlangan Yig'ma Statistika.....	55
Jahon Bankining Kredit Portfeli.....	59
2030-yilgacha Gender tengligi strategiyasining maqsadlari	60
Adabiyotlar ro'yxati.....	63

Umumiy ma'lumot

1. Gender tenglikdagi tafovutlarni bartaraf etish O'zbekistondagi inklyuziv o'zgarishlarning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar erkaklar bilan mehnat bozorida teng ishtirok etganlarida edi, O'zbekiston milliy daromadi qariyb 29 foizga oshgan bo'lar edi. Ishlaydigan xotin-qizlar erkaklar oladigan ish haqiga yetsalar edi, daromad ortishi 700 mingdan ortiq odamni kambag'allikdan olib chiqar edi. O'zbekistonning bunday ulkan salohiyatni amalda tatbiq etishiga nima to'sqinlik qilmoqda? Ushbu Mamlakat bo'ylab Gender tengligi tahlilida jarayonlarning kuchli tomonlari aniqlanib, O'zbekistonda davom etayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar doirasida tenglikni oshirish yo'lidagi qolgan to'siqlar ko'rib chiqiladi. Bu hujjat hukumat, Jahon banki, taraqqiyot yo'lidagi xalqaro hamkorlar, ilmiy doiralar va boshqalar tomonidan mavjud tahliliy ishlarni jamlaydi. Va nihoyat, yanada kengroq inklyuziv farovonlik yo'lida, O'zbekistonning joriy ko'rsatkichlari va salohiyati o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan bir qator ustuvor maqsadlar taklif qilinadi.

2. Davomli gender tengsizligi muammosi O'zbekistonning rivojlanish salohiyatini cheklab kelmoqda. Global ko'rsatkichlar bilan solishtirganda, O'zbekistonning gender tengligi bo'yicha so'nggi yillardagi faoliyatida ko'plab kuchli va zaif tomonlar aniqlanadi. Sog'liqni saqlash, ta'lim va turmush darajasi bo'yicha inson taraqqiyoti yutuqlaridagi tafovutlarni o'lchaydigan 2022-yilning global gender taraqqiyot indeksida O'zbekiston 189 ta davlat orasida 106-o'rinni egalladi. Monitoring natijalariga ko'ra, ayollar birgina o'rtacha umr ko'rish davomiyligi bo'yicha erkaklarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega. 2023-yilning 2023 yilda Ayollar, Biznes va Qonun (WBL) indeksi orqali o'lchangan tenglikka to'sqinlik qiluvchi qonuniy to'siqlar O'zbekistonni, atigi 70.6 ball bilan, Yevropa va Markaziy Osiyo (EMO) mamlakatlari ro'yxatining eng past qismida joylashtirdi (1-Jadval) — ayniqsa, genderga asoslangan zo'ravonlik (GAZ), ish joyidagi tenglik, teng maosh, ota-onalik va pensiyalar bilan bog'liq qonunchilikka oid masalalar bo'yicha. Shuni ham ta'kidlash joizki, yaqinda qabul qilingan qonunlar 2024 yilda mamlakatning WBL indikatorlari yo'nalishidagi chora-tadbirlari, ayniqsa, yangi Mehnat kodeksida joriy etilgan GAZga qarshi kurash va ish joyini himoya choralari ko'rish bo'yicha kelgusi ko'rsatkichlarini yaxshilashi mumkin (IV- va V-bolimlarga qarang). Bu kabi qiyinchiliklarga qaramay, O'zbekiston bir qancha muhim jihatlarida, birinchi navbatda, sog'liqni saqlash va ta'limning asosiy xizmatlaridan teng foydalanish bo'yicha nisbatan ijobiy natijalarni namoyish qilib kelmoqda, va bu mamlakatning global Gender tengsizlik indeksidagi yuqori ko'rsatkichlarida aks etishi bilan o'z tasdig'ini topgan. Umuman olganda, ushbu taqqoslashlar O'zbekistonda erkaklar va ayollar uchun inson kapitaliga sarmoya kiritish barqaror an'analari mavjud bo'lsa-da, yanada keng inklyuziv jamiyatni tashkil toptirish kabi dolzarb vazifa hali-hanuz yechilmaganini namoyon etmoqda. Lekin agar ushbu harakatlar muvaffaqiyatli bo'lsa, bu gender tengligi va iqtisodiy o'sishning doirasini yanada ta'minlaydi (1-Rasm).

1-Rasm: Gender tenglik indeksi va boshiga to'g'ri keladigan YAIM, O'zbekiston



1-Jadval: Gender tengligi ko'rsatkichlarining taqqoslanishi

Ko'rsatkich	O'zbekistonning ko'rsatkichlari	Yevropa va Markaziy Osiyo	Jahon ko'rsatkichlari
Gender taraqqiyoti indeksi (BMTTD 2022)	0.94	0.96	0.96
Gender tengsizlik indeksi (BMTTD 2022)	0.23	0.26	0.47
Ayollar, biznes va qonun (Jahon Banki 2023)	70.6	84.1	76.5

Izohlar: Gender taraqqiyoti indeksida yuqori baho gender muvozanatning yuqoriligidan dalolat beradi. Gender tengsizlik indeksidagi yuqori baho esa tenglik ko'rsatkichining past ekanligini bildiradi. "Ayollar, biznes va qonunlar" ko'rsatkichi bo'yicha baholashda yuqori baho ayollar uchun kengroq qo'llab-quvvatlovchi huquqiy muhit mavjudligini anglatadi.


3. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurash ayniqsa mehnat bozorida o'tkir mavzudur. Ayrim sohalarida gender tengligiga erishilganiga qaramay, zararli gender me'yorlari erkaklar va ayollar o'rtasida nihoyatda noteng iqtisodiy imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Bandlik va maoshlardagi tafovutlar tufayli 2017-yilda ayol boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YAIM) erkak boshiga keladigan ko'rsatkichdan 45 foizdan ortiqroq past bo'ldi¹. Mazkur tendensiya so'nggi yillarda yomonlashib bormoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, ayollar mehnat bozorida ishtiroki 2010 yilda 50 foizdan 2021 yilda 45 foizgacha tushgan. 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan ish bilan band bo'lmagan, ta'lim yoki kasbiy tayyorgarlik (NEET) sohalariga jalb etilmagan yigitlarning ulushi 8,8 foizni tashkil etdi. Ayni yoshdagi xotin-qizlar orasidagi mazkur ko'rsatkich esa 42 foizga tenglashdi. Hukumatning gender statistikasi portaliga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati ham shunga o'xshash nomutanosibliklarni namoyon etmoqda, erkaklarning biznes yoki fermer xo'jaligi uchun kredit olish ulushi doimiy ravishda ayollarnikidan ikki baravar yuqori. Mehnat kuchi ulushida ayollarning past ishtiroki, ularning ish haqi pastligi hamda kasbiy segregatsiya kabi omillar kombinatsiyasi mehnat haqi to'lanishida gender o'rtasida sezilarli darajada katta tafovutga olib keldi. 2022-yildagi davlat statistik ma'lumotlariga

¹ Ayollar – 5,064 AQSh dollari; erkaklar – 9,230 AQSh dollari.

ko'ra, ayollar erkaklarga qaraganda o'rtacha 34 foizga kamroq pul topadi, bu global o'rtacha 20 foizlik farq ko'rsatkichidan ancha yuqoridir.

4. Xotin-qizlar uchun cheklangan iqtisodiy imkoniyatlar ularga nisbatan kamsituvchi munosabat hamda uydagi rollari yuzasidan mavjud bo'lgan stereotiplar bilan bog'liqdir. Jahon banki so'rovnomalarida qatnashganlarning qariyb 30 foizi oilada tinchlikni saqlash uchun xotinlar erlariga qaraganda kamroq maosh olishlari kerak, 75 foizga yaqini esa uy yumushlariga e'tibor qaratish uchun ayollar erkaklarga nisbatan kamroq ishlashi kerak, deb hisoblaydi. Bu munosabatlar ayollarga ikki baravar yuk qo'yadi, chunki ular odatda pul topish ishlari bilan bir qatorda uyda bolalar, keksalar va qo'llab-quvvatlashga muhtoj boshqa uy a'zolari uchun deyarli barcha parvarishlash majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar. Erkaklar uy ishlariga kuniga o'rtacha atigi 2,15 soat ajratishadi, ayollarda esa bu ko'rsatkich 5,27 soatni tashkil etadi. 2022-yilda ishlamaydigan, mehnatga layoqatli yoshdagi xotin-qizlarning qariyb 75 foizi uy ishlari va parvarish qilish majburiyatlari tufayli ishlamasligini aytishgan va ayollar ushbu sabablar tufayli ishlamaslik ehtimoli erkaklarga qaraganda 30 marta ko'proq edi (2-Rasm). Mas'uliyatni nomutanosib ravishda taqsimlashning kuchli tendentsiyasi, ayniqsa, yosh ayollar va yosh bolalari va/yoki keksa oila a'zolari bo'lganlar orasida martaba o'sishi va daromad potentsialini cheklaydi.

2-Rasm: Bandlik ko'rsatkichlari va ishlamaslik sabablari



Manba: Jahon banki xodimlari uy xo'jaliklari byudjeti tadqiqotidan foydalangan holda hisob-kitob qiladi, 2022. Izoh: O'zbekistonda erkaklar uchun nafaqaga chiqish yoshi 60 yosh, ayollar uchun 55 yoshni tashkil etadi. Diagrammada ko'rsatilganidek, pensiya yoshidagi farq 55 yoshdan oshganlar erkaklar va ayollar o'rtasida bandlik darajasidagi katta tafovutga sabab bo'ldi.²


5. Ortib borayotgan dalillar to'plami shuni ko'rsatadiki, ochiq-oydin kamsitish va xotin-qizlar mehnatining past qiymatga ega ekanligi haqidagi tasavvurlar ham ularning umumiy ishchi kuchi ulushidagi ishtirokini cheklashda muhim rol o'ynaydi. Ayollar ishlashni tanlaganlarida, ular o'zlari uchun mos deb hisoblangan ishlarda nomutanosib ravishda kamsitishlarga duch keladilar va ularning ishi uchun yetarli deb hisoblangan ish haqi, malakasidan qat'iy nazar, erkaklarnikiga qaraganda muntazam ravishda

² Mehnat kodeksining 161-moddasiga binoan (2023-yil 30-apreldan boshlab amal qiladi), xodimning pensiya yoshiga yetishi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilish noqonuniy hisoblanadi. Mehnat kodeksi, shuningdek, nafaqaxo'rlarga to'liq kunlik ishlashni davom ettirishga va oylik ish haqi va pensiyani to'liq olishga imkon beradi.

past bo'ladi (Muradova va Seitz, 2022). Jahon banki tadqiqoti natijalari O'zbekistonda ish haqini belgilashda xotin-qizlarga nisbatan oshkora va tizimli noxolisona munosabatni yaqqol namoyon etdi. Tadqiqot tajribasi (Saytz, 2023) tasodifiy tanlangan lavhalardan foydalanib olib borilgan bo'lib, bu lavhalarda yaxshi tanilgan kasb egasi (masalan, doktor yoki o'qituvchi) ish jarayonida tasvirlangan va har bir hikoyaning oxirida ishchi oladigan maosh miqdori ko'rsatilgan. Hikoyalar gipotetik va standartlashtirilgan bo'lib, barcha ishchilar bir xil tarzda tasvirlangan, faqat bir muhim farq bilan: hikoyalarning yarmida ishchi ayol ismi bilan, qolgan yarmida esa erkak ismi bilan ko'rsatilgan. So'rovnomaga ishtirokchilaridan ularga ta'riflangan shaxs kam maosh olgan-yo'qligi, maoshi adolatlimi-yo'qmi yoki unga maosh ortiqcha to'langanmi degan savollar ustida mulohaza yuritish so'ralgan. Ikki oy davomida Markaziy Osiyo bo'ylab daromadlarning adolatligiga doir 70 mingdan ziyod baholashlar to'plandi. Barcha boshqa jihatlari bir xil bo'lsa ham, so'rovnoma javob beruvchilar hikoyadagi qahramon ayol bo'lganida ish haqi juda yuqori deb aytish ehtimoli 13% ga, qahramon erkak bo'lganda esa ish haqi juda past deb aytish ehtimoli 34% ga ko'proq edi.

6. 2017-yildan beri amalga oshirilgan ta'lim islohotlari natijasida maktabgacha va oliy ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilashga erishildi, shu bilan birga kuchliroq mehnat bozorini shakllanishiga hissa qo'shildi. 2017 yildan boshlab maktabgacha ta'lim (MTT) dasturlarining tez kengayishi tufayli, O'zbekistonda 3-6 yoshdagi bolalar o'rtasida ro'yxatdan o'tish darajasi Markaziy Osiyodagi barcha taqqoslagichlardan oldinga o'tib, 2015 yilda taxminan 20 foizdan 2021 yilda 62 foizgacha ko'tarildi, bu yutuqlar o'g'il va qiz bolalar o'rtasida teng taqsimlandi (3-Rasm). O'zbekiston fuqarolarini tinglash tadqiqoti ma'lumotlariga asoslangan Jahon bankining baholashiga ko'ra, har bir yangi davlat bolalar bog'chasi mehnat bozoriga taxminan 23 ayolni, har bir xususiy bolalar bog'chasi esa taxminan 5 ayolni jalb etadi. O'zbekistonda bolalar bog'chalarini kengaytirish natijasida, ayniqsa ish bilan ta'minlash imkoniyatlari eng kuchli bo'lgan shahar hududlarida, 2023-yilda kamida 72,000 ayol mehnat bozoriga jalb qilingan bo'lishi mumkin. Dastur juda ilg'or bo'lib, asosan past daromadli oilalarning bandligini oshirishga qaratilgan. 2017-yilgi islohotlardan oldin, O'zbekiston ham ECA (Yevropa va Markaziy Osiyo) mintaqasida, hatto dunyodagi o'rta daromadli mamlakatlar orasida ham eng past oliy ta'lim qamrovi darajasiga ega edi. Biroq 2017-yildan beri oliy ta'limning jadal kengayishi keskin o'zgarishlarga olib keldi. 2021-2022-o'quv yilida 2016-2017-o'quv yiliga nisbatan o'quvchilar orasida ayollar soni to'rt baravarga, erkaklar soni esa uch baravarga ortdi (3-Rasm).

3-Rasm: Oliy va maktabgacha ta'limda ro'yxatdan o'tish



Manba: Jahon banki xodimlari O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2022 yilgi ma'lumotlaridan foydalangan holda hisob-kitob qiladi.


7. Ayollar va erkaklar hali ham o'zlarining insoniy rivojlanish salohiyatini to'liqligicha tatbiq eta olmayapti, biroq bu turli yo'nalishlarda aks etmoqda. O'smirlar orasida tug'ilishning yillik koeffitsiyenti 15-19 yoshdagi 1000 nafar qizga 23,6³ nafarni tashkil etgan holda, O'zbekiston 2010-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) bo'yicha o'rtacha 15,8 ko'rsatkichdan ancha balandroq edi. O'smirlarning tug'ilish koeffitsiyenti shundan beri zaiflashib, 2021-yilda 15-19 yoshdagi har 1000 nafar qizga tug'ilishlar soni 34 nafargacha oshdi. Bunday erta homiladorlik holatlari odatda xotin-qizlarning kelgusida mehnat bozoridagi ishtirokining pasayishiga olib keladi.⁴ Sog'liqni saqlash va ta'limning boshqa o'lchovlari ham gender bilan bog'liq kuchli farqlarga ega. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'rtacha umr ko'rishdagi katta farqlar chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va noto'g'ri oziqlanishi bilan bog'liq bo'lib, erkaklar ayollarga qaraganda 5 dan 7 yilgacha kamroq yashashida aks etadi. Yaqin vaqtgacha ayollar o'rtasida oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichi erkaklarnikiga qaraganda ancha past edi va so'nggi yillarda inklyuzivlik yaxshilanganiga qaramay, 2022-yilda xotin-qizlar STEM bitiruvchilari ulushida bor-yo'g'i 36,1 foizni tashkil etdi.

8. Nisbatan kam sonli ayollar rasmiy hokimiyat lavozimlariga erishgan bo'lsalar-da, so'nggi davrda ularning umumiy kesimda ishtirok darajasi ancha yaxshilandi. 2019-yilgi saylovlardan so'ng parlament quyi palatasidagi deputatlik o'rinlarini egallagan ayollar soni ikki baravarga oshib, 48 nafarga yetdi. Ayollar quyi palatadagi o'rindiqlarning 32 foizini egalladi (bu ko'rsatkich 2021 yilgacha saqlanib qoldi) va bu O'zbekistonni parlamentdagi ayollar ulushiga ko'ra dunyodagi 190 parlament orasida 37-o'ringa ko'tardi (EXHT, 2020). Senatdagi o'rinlarni egallagan ayollar ulushi 2018-yildagi 20 foizdan 2022-yilda 25 foizga, hukumatda vazirlikka teng bo'lgan lavozimlardagi ayollar ulushi 2018-yildagi 2,9 foizdan 2022-yilda 5,7 foizga ko'tarildi. Mahalliy hamjamiyatlar (mahalla) rahbarlari o'rtasida ayollar ulushi 2018-yildagi 10 foizdan 2022-yilda 13 foizgacha oshdi. Biroq, xususiy sektordagi taraqqiyot bunday izchil bo'lmagan. Korxonalarda mulkchilik kesimida ishtirok etgan ayollarning ulushi 2008-yildagi 40 foizdan 2019-yilda atigi 26 foizgacha qisqardi va har o'ninchi korxonaning oliy boshqaruvida kamida bitta ayol o'rin egallagan. 2018-yildan 2021-yilgacha tadbirkorlik lavozimlarida ayollarning ulushi biroz oshgan (27 foizdan 28 foizgacha), lekin hududiy tafovutlar bilan: yuqori natijaga erishgan hududlarda (masalan, Andijon viloyati va Qoraqalpog'iston) 5 nafar **rahbardan** 2 nafar ayol kishi, bu esa eng kam teng huquqli hududlarning (masalan, Surxondaryo va Navoiy viloyatlari) natijasidan ikki baravar ko'p (4-Rasm). Ichki ishlar organlarida (oilaviy zo'ravonlik va boshqa huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni ko'rish bilan shug'ullanuvchi muassasalar) ayollar ulushi 2018-yildagi 8,7 foizdan 2022-yildagi 10,2 foizgacha, ayol sudyalarning ulushi esa 12 foizdan 13 foizgacha ortdi. Bunda har to'rt nafar sudyadan biri ayol bo'lgan, gender tenglikda yuqoriroq natijalarga erishgan viloyatlarni (masalan, Qoraqalpog'iston, Namangan viloyati) va har 50 nafar sudyadan 1 nafari ayol kabi ko'rsatkichlari ancha past bo'lgan viloyatlar (masalan, Buxoro viloyati, Jizzax viloyati) bilan solishtirganda sezilarli farq namoyon bo'ladi.

4-Rasm: Boshqaruv lavozimlari va sudyalarning o'rinlaridagi ayollar ulushi

³ <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/huquq>

⁴ [UNICEFning \(2022\)](#) hisobotida mavjud bo'lgan o'spirin yoshdagi onalik ta'sirining global va milliy sarhisoblar.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2021.

9. O'zbekistonda representativ so'rovnomalar ma'lumotlari yo'qligi va hisobotlarning noto'liq taqdim etilishi sababli Genderga asoslangan zo'ravonlik (GAZ) hodisalari yuzasidan aniq ma'lumot mavjud emas, biroq bu nihoyatda keng tarqalgan voqelik deb qayd etiladi⁵. O'zbekistonda gender asosidagi zo'ravonlikni xalqaro miqyosda taqqoslanadigan standartlardan foydalangan holda o'lchaydigan tizimli tadqiqot mavjud emas. Ma'muriy ma'lumotlar va muqobil manbalar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda zo'ravonlik keng tarqalgan va u haqda ma'lumot deyarli berilmaydi. Zo'ravonlik holatlari bo'yicha 2021-yilda 30 mingta himoya orderi berilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich qariyb 38 mingtaga yetgan (bu, ehtimol, hisobot standartlarining yaxshilanishi bilan bog'liq). Himoya orderlarining qariyb 87 foizi bir oila a'zolari tomonidan boshqa oila a'zolariga nisbatan so'ralgan, bunda turmush o'rtoqlariga nisbatan erlar huquqbuzar deb topilib, bu holatlarning umumiy hajmining to'rt dan uch qismini tashkil etgan. Zo'ravonlik holatlari haqida xabar berish uchun anonim kanallar mavjud bo'lsa-da, aksariyat holatlar haqida xabar berilmagan deb ishoniladi. Biroq, so'nggi me'yoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 yanvardagi 3-sonli qaroriga binoan tuzatish dasturini yaratdi. Dastur zo'ravonlik va majburlash harakatlarini sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish ishlarini amalga oshirishga qaratilgan.

10. O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning transformativ dasturini yuritib, jumladan, gender tengsizligiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. 2016-yilda Shavkat Mirziyoyev Prezident lavozimiga tayinlanganidan so'ng O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va umumiy siyosatni ishlab chiqishda fuqarolar farovonligi birlamchi vazifadek belgilanishiga qaratilgan transformativ o'zgarishlar boshlab yuborildi. Hukumatning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida sarhisob qilingan dasturda imkoniyatlardan kengroq va teng ravishda foydalanishni ta'minlash muhimligi hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari orasida o'tkazilayotgan islohotlarning salbiy natijalarini bartaraf etish zarurligi ta'kidlangan. Dastur, ayniqsa, kambag'allikni tez sur'atlarda qisqartirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish, ijtimoiy xavfsizlik tarmog'ini kengaytirish va ish o'rinlarini yaratishni jadallashtirish bo'yicha majburiyatlarni olgan holda inklyuzivni yanada kengaytirishga qaratilgan edi. 2022-yilda e'lon qilingan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida undan oldingi dasturning ustuvor yo'nalishlariga asoslanib, adolat, qadr-qimmat va inklyuzivlik kabi strategik mavzularga ko'proq urg'u berilgan (1-

⁵ CEDAW (2015).

Iqtibosga qarang). 2022-yilda qabul qilingan qonun me'yorlari va davlat dasturlari ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlaydi. Ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan faol dasturlar va kam ta'minlangan ayollarni oliy ma'lumot olishda qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan moliyalashtirish ko'proq tenglikni targ'ib qilish bo'yicha ko'plab yangi tashabbuslardan biridir.⁶

1-Iqtibos: Gender tafovutlarini tugatish yuzasidan 2022-2026-yillar uchun Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidan parcha

69-maqсад: Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish. Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish. Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish. Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash. "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

11. 2021-yilda O'zbekistonda 2030-yilgacha gender tengligiga erishishga qaratilgan yangi strategiya qabul qilindi. Strategiya 2021-2022-yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasini, shuningdek, saylov huquqlari, davlat xizmati, ta'lim, fan va sport kabi turli sohalarda gender tengligiga erishishning asosiy tamoyillarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, strategiya ijtimoiy-iqtisodiy sohada xotin-qizlar va erkaklar uchun ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish, kredit olish kabilarda teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash hamda tazyiq va zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan. Qolaversa, ushbu strategiya oilaviy munosabatlar, bola parvarishi, huquqiy hujjatlar va gender statistikasidagi gender bilan bog'liq muammolarni yechishni nazarda tutadi. Strategiyaning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun tegishli manfaatdor tomonlar va fuqarolik jamiyati tashkilotlaridan iborat Gender komissiyasi mazkur strategiya monitoringini olib boradi.

⁶ 2021-2022 yillarda O'zbekistonda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 40 dan ortiq islohot va dasturlar qabul qilindi. Masalan, qonunda (2022 yil dekabr-809-son) "gender auditi" qoidasi joriy etilgan. Ayollar va bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan 2023-yil 11 apreldagi qonun bilan 5 ta kodeks va 10 ta qonunga (O'RQ -829, 31.10.2023) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu qonun bilan tegishli huquqiy hujjatlarga "oilaviy (maishiy) zo'ravonlik", "ta'qib etish", "shahvoniy shilqimlik" kabi tushunchalar kiritildi va ushbu qoidabuzarliklar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilandi. Bundan tashqari, oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar-texnika bilim yurtlari va kollejlarda tahsil olayotgan ayollarning ta'lim shartnomalarini to'lash uchun foizsiz ta'lim kreditlari joriy etildi. Magistraturada tahsil olayotgan barcha ayollarga shartnoma asosida o'qish to'lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi; shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, yetimlar yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan o'quvchilarning o'quv kontraktlarini davlat budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan beg'araz moliyalashtirish joriy etildi (2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmon, 3-band). Bundan tashqari, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksga kiritilgan o'zgartirishlar jinsiy kamsitishni, shu jumladan ayollar va erkaklarning teng huquqlarini ochiq rad etganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi (O'RQ-874, 31.10.2023).

12. Mazkur Mamlakat bo'ylab gender tengiligi tahlili O'zbekistondagi islohotlarning keyingi bosqichi bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi. O'z salohiyatini to'liq amalga oshirish uchun O'zbekiston jamiyati xotin-qizlarning iqtisodiy ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi zararli ijtimoiy me'yorlar, oliy ta'lim olish borasidagi qiyinchilik va yetishmovchiliklar (ayniqsa, yuqori daromadli STEM yo'nalishlarida), sog'liqni saqlash sohasidagi cheklovlar va oilani rejalashtirish imkoniyatlarining yomonlashuvi, GAZdan to'liq himoyalanganlik va ayollarning hokimiyat lavozimlarida nomutanosib namoyon etilganligi kabi bir qator dolzarb muammolarni yechish lozim. Shu bilan birga, O'zbekiston mavjud sharoitlarni yaxshilash borasida sezilarli natijalarga erishib, ularning aksariyati kelgusi yillarda gender tengligini oshirish yo'lida ijobiy hissa qo'shadi. Inson kapitalini to'plashning ikkita asosiy manbasi – maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim – qamrovining o'sishni saqlab qolgan holda, bu yanada inklyuziv va gullab-yashnagan O'zbekiston shakllanishi yo'lida ijobiy omil bo'lib xizmat qiladi.

I — Kirish

13. O'zbekiston siyosatchilari gender tengligiga keng ko'lamda erishishni maqsad qilib, davlat konstitutsiyasida “ayollar va erkaklar teng huquqlarga egadirlar” degan tenglik tamoyilni mustahkamlab qo'rganlar. Respublikaning 2022 yilgi yangi Konstitutsiyasida gender tengligiga sodiqlik yanada kuchaytirildi va davlat tomonidan ayollar va erkaklarga jamoat va davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlatning boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni taqdim etishi aniqlandi (58-modda). 2018-yilda O'zbekiston bo'yicha so'nggi Mamlakat bo'ylab gender tenglik tahlili e'lon qilinganidan beri mamlakat bir qator asosiy gender tafovutlarini bartaraf etishda jadal muvaffaqiyatlarga erishdi.⁷ Bir qator sohalarda taraqqiyotni rag'batlantiradigan eng foydali yutuqlardan biri bu ma'lumotlarning erkin foydalanilish uchun ochiqligi va dalillar mavjudligidir. Genderga bog'liq rivojlanish masalalari bo'yicha ajratilgan statistik ma'lumotlar to'liq bo'lmasa-da, muhim sohalarda, jumladan, mehnat bozorida, inson kapitali, fikr bildirish va ishtirok erkinligi kabilarda tobora keng aks ettirilgan va ko'plab statistik ko'rsatkichlar ilg'or statistika agentliklari tomonidan taqdim etilgan qamrovga mos keladi. Ushbu ma'lumotlar ham jamoatchilik ishtiroki uchun, ham mamlakatning ulkan islohotlar yo'lidagi faoliyatini kuzatishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma'lumot jamoatchilikning ishtiroki uchun ham, mamlakatning ulkan islohotlar dasturini amalga oshirishdagi taraqqiyotini kuzatish uchun vosita sifatida ham juda muhimdir. Axborot almashish va jamoatchilik bilan maslahatlashishga ochiqlik ortib borayotgani, shuningdek, ustuvor masalalar va siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etayotgan hamkorlarning xilma - xilligi nuqtai nazaridan siyosiy manzarani o'zgartirdi. Biroq chinakam tenglikka erishish yo'lidagi ishlar tugallanmagan va O'zbekiston o'z maqsadiga erishish yo'lida turli qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda.

O'zbekistonning o'zgarayotgan siyosat manzarasi

14. 2017-yildan buyon amalga oshirilgan jadal siyosat va qonunchilik islohotlari O'zbekistonda gender tengligi nuqtai nazaridan manzarani o'zgartirdi. 1995-yilda O'zbekiston Xotin-qizlarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga qo'shildi, so'ngra mamlakatda xotin-qizlar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qiluvchi bir qancha milliy qonunlar qabul qilindi. Ammo 2000-yillar gender tengsizligini bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik va islohotlardagi sustlik bilan ajralib turdi. Yangi prezident rahbarligi ostida 2017-yildan boshlab tenglikni oshirishga qaratilgan siyosat ustuvor masalaga aylandi, va shundan so'ng mazkur yo'nalishdagi faoliyat jadal sur'atlar

⁷ Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan olib borilgan, quyidagi havola orqali ko'ring:
<http://dx.doi.org/10.22617/TCS199904>

bilan o'sdi. Jumladan, 2019-yilda "Gender tengligi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, unda ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar kafolatlari, kamsitilmaslik qoidalari, davlat xizmatlaridan teng foydalanish, davlat ishlarida teng ishtirok etishni rag'batlantirish, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlaridan erkin foydalanishlarini yaxshilash nazarda tutilgan. 2019-yildagi qonun, shuningdek, ayollarning nikohdagi mulkiy huquqlarini himoya qilinishini yaxshiladi. Shuningdek, 2019-yilda ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun GAZ yuzasidan politsiyaga shikoyat qilish uchun huquqiy asos yaratdi va jabrlanuvchilarning tizimli himoya qilinishiga eshiklarni ochib berdi. 2022-yilda O'zbekiston Mehnat kodeksiga kiritilgan o'zgartishlar bilan teng mehnat evaziga teng ish haqi kafolatlari qo'shildi, himoyalangan kasblarda ishlaydigan ayollarga nisbatan cheklovlar olib tashlandi, ishga qabul qilish va ishdan bo'shatishda jinsiga qarab kamsitish taqiqlandi, ayollar va erkaklar uchun umumiy hamda ota-onalik ta'tillari ko'lamini kengaytirildi. Yangi mehnat kodeksi 2023-yilda kuchga kirdi. Bundan so'ng zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarni himoya qilishni kuchaytiradigan va zo'ravonlikka moyil bo'lgan jinoyatchilar uchun jinoiy jazolarni joriy etadigan muhim gender zo'ravonlik to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Shahvoniy shilqimlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan (ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 41-moddasi).

Imkoniyatlar va qiyinchiliklar

15. So'nggi ishlab chiqilgan siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

O'zbekiston gender tengligini ta'minlash uchun muhim siyosiy islohotlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, ularni samarali amalga oshirish qiyin vazifa bo'lib qolmoqda. Gender tafovutlari mehnat bozoridan tortib, ijtimoiy me'yorlar va gender zo'ravonligigacha bo'lgan ko'plab sohalarda saqlanib qolmoqda. Bu masalalarni hal etish huquqiy islohotlarni, institutsional mustahkamlashni, ma'rifiy va maqsadli tadbirlarni qamrab oluvchi murakkab va muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Yangi tashabbuslarni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan vazirliklar, idoralar va hukumatning boshqa bo'limlari bilan salohiyatni oshirish yo'lidagi hamkorlik ularning muvaffaqiyatga erishishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

16. O'zbekiston sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlaridan foydalanishda gender tengligini yaxshilashda sezilarli yutuqlarga erishdi.

Ta'lim olishda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar, ayniqsa, oliy ta'lim oliygohlariga kirish hamda maktabgacha ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishdagi kamchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etdi. Ushbu yutuq mamlakatda inson resurslarining mustahkam poydevoriga asoslanadi. Shu bilan birga, mazkur yutuqlarni mustahkamlash va mehnat bozorida davom etayotgan gender nomutanosibliklarini bartaraf etish zarur. Ta'lim sohasidagi yutuqlarga qaramay, mehnat bozoridagi gender nomutanosibligi saqlanib qolmoqda. Inson kapitali salohiyatini mehnat bozorida yanada mazmunli taraqqiyotga aylantira olmaslik, alohida olingan shaxslar va mamlakat - insonlarga investitsiyalarni ko'paytirish bilan bog'liq va'dalardan to'liq foydalana olmayotganligini anglatadi.

17. Gender tafovutlari bilan bog'liq muammolar muayyan viloyatlarda jamlangan. Xotin-qizlar o'rtasidagi, ayniqsa, mamlakatning turli hududlarida istiqomat qiluvchi ayollar o'rtasidagi tafovutlar ham samarali siyosatning ishlab chiqilishiga ayniqsa bog'liq bo'ladi. Bir nechta hududlar bir vaqtning o'zida ko'plab o'lchovlarga ko'ra gender tenglik muammolariga duch kelishmoqda. E'tiborlisi, Samarqand viloyati erta turmush qurish bo'yicha oxirgi o'rinni egallasa-da, bu yerda bandlik darajasi bo'yicha gender tengsizlik va erta onalik darajasi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Qashqadaryo viloyatida ham xotin-qizlar o'rtasida ishsizlik darajasi o'rtachadan yuqoriligi, erta turmush qurishda yuqori ko'rsatkichlar va saylangan mahalla raisligida ayollar ulushining eng pastligi kabilar duch kelmoqda (keyingi o'rinda Samarqand viloyati joy

olgan)⁸. Bu va boshqa bir qancha viloyatlar turli o'ldamlarga ko'ra, gender tengligidagi ulkan tafovutlarga ega. Ushbu tadqiqotning umumiy tavsiyalaridan tashqari, mazkur viloyatlarda duch kelinadigan alohida olingan ehtiyojlar va muammolarni hal qiladigan maqsadli yondashuvlarni tatbiq etish o'z samarasini ko'rsatishi mumkin.

18. Inklyuziv ijtimoiy me'yorlarni rag'batlantirish gender muvozanatli jamiyat barpo etish yo'lida muhim shartlaridan biridir. Ijtimoiy me'yorlar yuzasidan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyati va jamiyat hayotidagi rolini cheklovchi qarashlar, ularga nisbatan zo'ravonlik holatlariga beparvolik munosabati kabilar jamiyatda hali-hanuz keng tarqalgan. Jahon bankining yaqinda o'tkazgan so'rovnomasida ishtirok etgan ayollarning yarmidan ko'pi (52 foiz) jamiyatdagi barcha yoki aksariyat insonlar jinsiy sheriklar o'rtasida yuz beradigan zo'ravonlikni ma'lum sharoitlarda maqbul deb hisoblashi aniqlandi. Ushbu hukmron bo'lib qolgan me'yor gender tengsizligini davom ettiradi va GAZga qarshi samarali kurashishga futur yetkazadi. Jinsiy asosdagi jinoyatlar va oiladagi zo'ravonlik, ular haqida kam hollarda xabar qilinsa-da, keng tarqalganligicha qolmoqda. GAZ monitoringi olib borilishi to'liq bo'lmagan statistik ma'lumotlar tufayli qiyin bo'lib qolmoqda, shu bilan birga adliya tizimi xizmatlaridan foydalanish uchun to'siqlar ham saqlanib qolmoqda. Ushbu zararli ijtimoiy me'yorlarga qarshi kurashish va hurmat, tenglik va zo'ravonliksiz madaniyatni targ'ib qilish juda muhimdir.


19. Mazkur hisobotning tuzilishi quyidagicha. 2-Bo'lim gender me'yorlari va ijtimoiy sohada kutilayotgan natijalarni qamrab olgan. 3-Bo'lim inson kapitalidagi jinsiy tafovutlar haqida muhokama qiladi. 4-Bo'lim iqtisodiy imkoniyatlar nuqtai nazaridan gender tengligiga baho beradi. 5-Bo'lim ayollarning fikr bildirishi va ishtirok etish erkinligi mavzusiga qaratilgan. 6-Bo'lim tavsiyalar bilan yakunlanadi.

II — Gender me'yorlari va ijtimoiy kutilmalar

20. Kengroq gender tengligi yo'lidagi say'-harakatlar zararli gender me'yorlari tufayli ko'pincha to'xtab qoladi. Madaniy me'yorlar odatda ijtimoiy va iqtisodiy kesimdagi gender nomutanosibligining asosiy sababi bo'lib, ular o'zaro bog'liq bo'lsa-da, iqtisodiy taraqqiyotning o'zi zararli me'yorlarni bartaraf etishi dargumondir (Alesina, Giuliano, and Nunn 2013; Jayachandran 2021). O'zbekistonda ijtimoiy so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning jinsi, yoshi va daromad darajasidan qat'iy nazar, xotin-qizlar va erkaklarning munosib rollari haqidagi an'anaviy qarashlar keng o'rin topgan. Erkaklar ayollardan ko'ra ko'proq hurmatga sazovor bo'lishi, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlardan kamroq foydalanishi kerak degan tushuncha va qarashlar keng tarqalgan. Zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlovchi qarashlar ozchilikni tashkil etsa-da, jamoatchilikning sezilarli ulushi alohida olingan shart-sharoitlarda jinsiy sherik tomonidan zo'ravonlik o'rinli bo'lishi mumkin degan fikrda (5-Rasm).

5-Rasm: Xotin-qizlar roli, huquqlari va ularga nibatan munosabatga bo'lgan qarashlar

⁸ 8-Moddaga muvofiq fuqarolar yig'ini raisi fuqarolar yig'ini tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Har bir fuqaro erkak yoki ayol bo'lishidan qat'iy nazar, o'zi tanlagan nomzodga ovoz berish huquqiga ega. Fuqarolarni ma'lum bir nomzod-ayolga ovoz berishga majburlash mumkin emas.



Manba: Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi so'rovnomasi, 2021

Izoh: Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi so'rovnomasi 4013 uy xo'jalikni qamrab oladi va hukumat hamkorlari bilan birgalikda o'tkazildi.

21. Ayollar uchun bandlikni oshirish shaxslarning fikr darajasida mashhur bo'lsa ham va mehnat qonunchiligi esa erkaklar va ayollarning teng imkoniyatlarga ega bo'lgan mehnat bozorida ishtirok etish huquqlarini kafolatlasada, ko'pchilik jamoatchilik fikrlari ayollarning bandligiga qarshi ekanligiga ishonishadi. "L2CU" so'rovnomasi ishtirokchilari "uydan tashqari ishlaydigan ayollarning soni kamroq bolishi lozim" degan fikrga qat'iy e'tiroz bildirgan, bu savolga ularning 80 foizdan ko'prog'i norozilik bildirgan. Mamlakatdagi eng muhim iqtisodiy muammolar qaysilar deb berilgan savol, erkak va ayollar uchun ish o'rinlarini yaratish jamoatchilik orasida deyarli bir xil darajada xavotir uyg'otdi. Biroq, ishtirokchilardan fuqarolarning qaysi qismi "ayollar uydan tashqarida ishlamasligi kerak" degan fikrga qo'shilishini taxmin qilib ko'rishlari so'rashganda, ularning deyarli barchasi o'z vatandoshlaridan ko'proq konservativ bo'lishini kutishlari aniqlandi, aslida esa bunday bo'lmadi. Ayniqsa, "ayollar uydan tashqarida kamroq ishlashi kerak"ligini ozchilik (18 foiz) qo'llagan bo'lsa, mazkur ulush aynan shu darajada past bo'lishini respondentlarning 2 foizdan kamrog'i kutgan edi. Bu gender me'yorlari o'z-o'zini mustahkamlashi mumkinligini ko'rsatadigan bir qator tadqiqotlar natijalariga mos keladigan vaziyat. Ba'zida odamlar o'zlarini ijtimoiy me'yorni idrok etishlariga muvofiq tutishadi, shu bilan birga, bu esa faqatgina atrofda ushbu me'yorga rioya qilishlarini kutishlariga ishonchi bilan qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Quyidagi tadqiqot Saudiya Arabistoni misolida noto'g'ri qabul qilinuvchi me'yorlar naqadar bardavom bo'lib qolishi mumkinligini namoyish etadi. Aynan shu mualliflarning aksariyati yaqinda ushbu topilmalarni kengaytirib, ularni 60 ta mamlakatda takrorladilar (Bursztyn va boshqalar, 2023).

22. Mahalla rahbarlari, odatda, ular xizmat qilayotgan jamoalarga qaraganda gender rollari haqida odatiy yoki konservativ bo'lgan qarashlarga ega. "O'zbekiston fuqarolarini tinglaymiz" so'rovnomasi doirasida mamlakat bo'ylab suhbatlashilgan mahalla rahbarlarining vakillik namunasiga ko'ra⁹, har 3 nafar mahalla raisidan 2 nafar kishi ayollar uy ishlarini bajarishga ulgurishlari uchun erkaklarga qaraganda uydan tashqaridagi faoliyat bilan kamroq shug'ullanishlari kerakligini aytadilar, bu umumiy aholi javoblaridan bir oz kamroq ko'rsatkichga ega. Biroq, 60 foizga yaqin xuddi shu raislar, oila totuvligi yo'lida

⁹ "O'zbekiston fuqarolarini tinglash" so'rovnomasida har oyda 600 ga yaqin mahalla rahbarlari o'rtasida so'rov o'tkazilib, yiliga 7200 ta mahalla qamrab olindi.

xotinlar erlariga qaraganda kamroq maosh olishlari kerak degan fikrni keng ma'qullashgan. Har ikkala savolga javoblar mahalla raisi ayol yoki erkak bo'lishidan qat'iy nazar deyarli bir xil bo'ldi. Nisbatan konservativ mahalla raislari va kamroq konservativ saylovchilar o'rtasidagi tafovut mamlakatning shahar joylarida eng katta bo'lgan.


Tadqiqot ma'lumotlari: Noto'g'ri tushunilgan ijtimoiy me'yorlar – Saudiya Arabistonida ayollarning umumiy ishchi kuchi ulushidagi ishtiroki.

Ayollarning umumiy ishchi kuchi ulushidagi ishtiroki (FLFP) nihoyatda past bo'lgan Saudiya Arabistonida, vasiylik odatiga ko'ra, odatda, turmush qurgan xotin kishilarning ishga chiqish-chiqmasligi borasidagi qarori bo'yicha yakuniy so'zni ularning erlari aytadilar. Biz Saudiya Arabistonidagi ko'pchilik uylangan yosh erkaklar FLFPni uydan tashqarida me'yoriy nuqtai nazardan qo'llab-quvvatlayotganliklari yuzasidan rag'batlantiruvchi dalillarni keltiramiz (ham Ar-Riyoddagi eksperimental va hamda milliy ro'yxatlardan). Shu bilan birga, ular boshqa o'zlariga o'xshagan erkaklar tomonidan FLFPni qo'llab-quvvatlash darajasini past deb baholaydilar, hatto o'z qo'shnilari kabi bir xil ijtimoiy muhitdagi erkaklar ham ayni shunday fikrda. Biz uylangan erkaklarning boshqalar fikri to'g'risidagi qarashlarini tasodifiy o'zgartirish orqali, ularning ham o'z xotinlarini ishga kirishlariga ruxsat berish istagini oshirish mumkinligini ko'rsatamiz (bu erlarning o'z xotinlari uchun mos ish topishga mo'ljallangan maxsus xizmat ilovasiga qimmat to'lovlar kiritish orqali ro'yxatdan o'tishlari bilan o'lchanadi). Nihoyat, biz ushbu qaror haqiqiy natijalarga olib kelishi mumkinligini aniqladik: asosiy aralashuvdan to'rt oy o'tgach, bizning dastlabki ro'yxatimizdagi FLFPning maqbulligi haqidagi qarashlarini o'zgartirgan erkaklarning xotinlari, yuqori ehtimollik bilan uydan tashqarida ish topish uchun ariza berib, suhbatdan o'tganlar. Umumiy kesimda, dalillarimiz noto'g'ri tushiniladigan ijtimoiy me'yorlar tufayli ish qidirish yetarli darajada ta'minlanmagan mehnat bozoridagi kelishmovchiliklarning potensial muhim manbasini aks ettiradi.

Bursztyan, Leonardo, Alessandra L. Gonsales va David Yanagizava-Drott. Noto'g'ri tushunilgan ijtimoiy me'yorlar: Saudiya Arabistonida ayollarning umumiy ishchi kuchi ulushidagi ishtiroki. w24736-son. Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi, 2018.

23. Jahon bankining tadqiqotlari cheklovchi gender me'yorlari va bu me'yorlarning diskriminatsiyaga aylanishiga ishora qiladi. Jahon bankining "Markaziy Osiyoni tinglaymiz" so'rovnomalari doirasida har oy mintaqaning to'rtta davlatidagi minglab uy xo'jaliklari bilan suhbat o'tkazib kelinadi. 2022-yilda mintaqada bo'yicha respondentlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'i ayollar uydan tashqari ishlashdan ko'ra oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish va uy mas'uliyatini birinchi o'ringa qo'yishi, erkaklar esa asosiy boquvchi bo'lishi kerakligini qayd etgan (6-Rasm). Shuningdek, 20-50 foizi oralig'ida javob berganlar turmush qurgan xotin-qizlar oilaviy totuvlik uchun erlaridan kamroq maosh olishlari kerak degan fikrni qo'llagan. Va respondentlar shahar yoki qishloq joylarida yashashidan qat'iy nazar, bu javoblar nisbatan bir xil edi.

6-Rasm: Ayollarning ish va oilaviy hayotdagi o'rni haqidagi so'rovnomaga asoslangan tasavvurlar



Manba: Jahon Bankining “Markaziy Osiyoni tinglaymiz” so‘rovnomasi, 2022

Izoh: tahlil Markaziy Osiyoni tinglash (2022) tadqiqotida 72 000 respondentning so‘rovlari asoslangan.

24. Aholining ayrim qatlamlari gender tengligini yuksak qadrlashiga qaramasdan, xotin-qizlarning ta’lim olish, sog’liqni saqlash, ishga joylashish va qaror qabul qilish vakolatlaridan foydalanishiga to’sqinlik qiluvchi zararli ijtimoiy me’yorlar va amaliyotlar keng tarqalganligicha qolmoqda. Misol uchun, garchi bu kamayib borayotgan bo’lsa ham, erkak kishilarning universitetga, ayniqsa eng nufuzli yo’nalishlarga kirishini qo’llab-quvvatlashdagi fikrlar saqlanib qolmoqda. Oliy ma’lumotni tugatgan ayollar orasida ish bilan ta’minlanganlar soni erkaklarga qaraganda kamroq, bu ko’pincha ayollardan uy ishlarini kasbiy rivojlanishdan ustun qo’yish kutiladi. Ishga qabul qilish jarayonidagi noxolisona amaliyotlar, jumladan, ayolning oilaviy ahvoli yoxud uning ota-onasining statusiga oid savollar ham ularning mehnat bozorida teng ravishda ishtirok etishiga to’sqinlik qiladi. Qonunchilik xotin-qizlar uchun teng iqtisodiy imkoniyatlarni kafolatlasa-da, ayol kishida garov ta’minoti yetarli emasligi sababli uning kredit olish imkoniyati yo’qligi mazkur jarayondan chiqarib tashlanishiga olib kelmoqda. Qonunchilik ayollar uchun teng iqtisodiy imkoniyatlarni kafolatlagan bo’lsa-da, garov ta’minoti yetarli emasligi sababli kredit olish imkoniyati yo’qligi ko’plab ayollar uchun muammo bo’lib qolmoqda. Qolaversa, ayrim vaziyatlarda ayollarning itoatkor va oiladagi zo’ravonlikka toqatli bo’lishini kutish, ayollarning erkin fikr bildirishi va faoliyat yuritishlariga nisbatan genderga asoslangan tengsizlik saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

25. Yaqinda qabul qilingan qonunchilik hukumatning islohotlar dasturida gender tengsizligini bartaraf etishga sodiqligini namoyon etmoqda, biroq bu boradagi yetuk natijalarga erishish uchun faoliyatlarni puxtalik bilan amalga oshirish talab etiladi. O’zbekistonda jinsiy tenglikka erishish uchun, ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlar va ayollarning vakolatlanishi sohalaridagi mavjud jinsiy tengsizlik bo’shliqlarini hal etish muhimdir. Xotin-qizlar o’rtasida kambag’allikni qisqartirish chora-tadbirlari, shuningdek, maoshdagi tafovutni, diskriminatsiya va tenglikning asosiy muammolarini hal qiluvchi islohotlar gender tengligi yo’lidagi qadamlardir. Biroq, ularning muvaffaqiyati markaziy hukumat va hududiy hokimiyat organlari tomonidan xotin-qizlar har kuni duch keladigan cheklovlarni bartaraf etish bo’yicha tizimli faoliyat yuritilishiga bog’liq bo’ladi.

Tadqiqot ma'lumotlari: O'smirlarning gender tengligiga oid tushunchalarini qayta shakllantirish

[eksperiment] 7- va 10-sinf o'quvchilarini sinfda gender tengligi haqida munozaralarga jalb qildi, bunda ikki yarim yillik o'quv yilida har uch haftada 45 daqiqalik sessiya o'tkazildi. Mashg'ulotlar o'quvchilarni faktlar bilan tanishtirib, gender tenglikni qo'llab-quvvatlar va eng muhimi, ularni bu borada shaxsiy fikrlari va jamiyatdagi qarashlari haqida fikr yuritishga undar edi. Muhokamadagi mavzular orasida gender stereotiplari, uydagi gender rollari, qizlarning ta'limi, ayollarning uydan tashqaridagi ish faoliyatlari va ularga nisbatan amalga oshirilayotgan tazyiqlar o'rin topgan. Ba'zi mashg'ulotlar o'quvchilarga o'z fikrlarini boshqalarga yetkazishda yordam berish uchun muloqot qilish ko'nikmalarini, misol uchun, ota-onalarini o'zlarining kechroq yoshda turmush qurishlariga ruxsat berishiga ko'ndira olishiga o'rgatdi. Dasturning mohiyati gender tengligi yo'lida inson huquqlarining himoyasi masalasini xotin-qizlarni qadrlash yo'lida, jumladan, ularning oila va jamiyat taraqqiyotidagi iqtisodiy hissassi kabi pragmatik sabablar bilan birlashtirdi ...

Bu kabi choralar qisqa muddatda (dastur tugaganidan uch yarim oy o'tgach yoki dastlabki bosqichdan uch yil o'tgach) gender tengligi borasidagi tushunchalarni 0,18 standart og'ish bilan yanada takomillashtirganini aniqlaymiz. Yondashuv-munosabatlar o'lchovi - bu gender tengligini qo'llab-quvvatlashga oid bir nechta so'rovnomalarda javoblarini jamlagan indeks. Ta'sir hajmi o'quvchi dastlab gender-regressiv nuqtai nazarga ega bo'lgan holatlarning 16 foizida gender tengligini yangicha qo'llab-quvvatlashga teng bo'ldi. Hayratlanarlisi shundaki, ushbu ta'sirlar saqlanib qolgan. Biz o'rta muddatda (dastur tugaganidan ikki yil o'tgach yoki dastlabki bosqichdan besh yil o'tgach) qarash-munosabatlarga katta ta'sirni aniqlaymiz - 0,16 standart og'ish.

Dhar, Diva, Tarun Jayn va Seema Jayachandran. "O'smirlarning gender qarashlarini qayta shakllantirish: Hindistondagi maktabda o'tkazilgan tajribadan dalillar". Amerika iqtisodiy sharhlari, 112.3-son (2022): 899-927.

26. Xotin-qizlarning jamoat hayoti va hokimiyat lavozimlarida ishtirok etishi gender tengligi me'yorlari va madaniy tasavvurlar bilan chegaralanadi. Ayollarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga qaratilgan qonunchilikdagi islohotlarga qaramay, gender me'yorlari va madaniy tasavvurlar ularning ishtirokiga to'sqinlik qilishda davom etmoqda. Romanova va uning hammualliflari tomonidan o'tkazilgan Jahon bankining tadqiqoti O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki uchun bir qancha to'siqlarni aniqladi. Ham rasmiy, ham norasmiy jamiyat institutlarida erkaklar ustunlik qilib kelmoqda. Ayollarning ishtiroki ko'pincha "erkaklar makoni" deb hisoblanuvchi holatga tajovuz sifatida qabul qilinadi va mazkur ishtirok ta'qib ostiga olinish, qo'rqitilish va hatto jismoniy zo'ravonlik kabilarga olib kelishi mumkin¹⁰. Shu bilan birga, Jahon banki so'rovnomalari va ijtimoiy so'rovnomalarda doimiy ravishda aholining aksariyati (jumladan, ayollar va erkaklar) erkaklar ayollarga qaraganda yaxshiroq siyosiy yetakchi bo'la oladi degan ishonchlar mustahkam ekanligini namoyon etadi.¹¹

27. O'zbekistonda zo'ravonlikni oqlaydigan me'yorlar davomli ravishda mavjud bo'lib qolmoqda. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi (RIDP) 2021-yildagi so'rovnomasida erkaklar va ayollarga GAZ bilan bog'liq bir qator savollar berildi. Savollarning biri zo'ravonlik holatlari qanchalik tez sodir bo'lgan-yo'qligi haqida edi. Javob bergan xotin-qizlarning taxminan 70 foizi va erkaklarning 65 foizi bu hech qachon sodir bo'lmasligini ta'kidlagan, shu bilan birga respondentlarning deyarli uchdan bir qismi

¹⁰ Romanova va b. (2017).

¹¹ Ayollarning taxminan 82% va erkaklarning 79%.

qishloqda zo'ravonlik mavjudligini tan olgan. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq me'yorlarni tushunishga qaratilgan boshqa savol respondentlarga xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni oqlaydigan holatlar yuzasidan edi. RIPD ning so'rovnomasi natijalariga ko'ra, 2021 yilgi Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi so'rovnomasining bir qismi sifatida ayollarning uchdan bir qismidan ko'prog'i, agar xotinlar bolalarni e'tiborsiz qoldirsa, erlar xotinlarini urish huquqiga ega ekanligiga qat'iy rozi bo'lishdi (5-Rasm). Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlovchi raqamlar aksariyat respondentlarning fikrini aks ettirmasa-da, ular ma'lum vaziyatlarda aholining to'rtidan bir qismidan uchdan bir qismigacha bo'lgani qo'llab-quvvatlaganliklarini tan olishga tayyor ekanliklarini ko'rsatadi.

III — Inson resurslari

28. Iqtisodiy o'sish uchun inson kapitalining to'planishi muhim ahamiyatga ega. Odamlarning inson kapitali – ularning ko'nikmalari, sog'lig'i, bilimlari va bardoshlilik – barqaror o'sish va kambag'allikka qarshi kurashishning zaruriy shartidir, zero u insonning jamiyatda o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish qobiliyatini shakllantiradi (Jahon banki, 2018). 2012-yildagi Jahon taraqqiyoti hisobotida inson kapitali bilan ta'minlanganlikdagi gender farqlar global gender tengsizligini qisqartirishning asosiy muammosi sifatida belgilandi (Jahon banki, 2012). Xotin-qizlar salomatligi va ta'limiga sarmoya kiritilishi nafaqat ayollar va erkaklar o'rtasidagi ish haqi va unumdorlikdagi tafovutlarni kamaytiribgina qolmay, balki oliy ta'lim va bolalar salomatligini yaxshilash orqali kelajak avlodlar uchun imkoniyatlarni ishonchli oshirishi ham mumkindir.

29. O'tish davri iqtisodiyotiga ega eng muvaffaqiyatli mamlakatlarda ham erkaklar, ham ayollarning inson kapitaliga ustuvor ahamiyat beriladi. Vyetnam, Estoniya va Polsha kabi jadal rivojlanayotgan o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga qo'shimcha ravishda, Osiyoning barcha eng muvaffaqiyatli "yo'lbars" iqtisodiyotlari ham ta'limga ustuvor ahamiyat qaratib, xalqaro baholash reytinglarida ijobiy natijalarga erishib, ta'lim darajasini oshirishda davom etmoqda. O'tish davri iqtisodiyotiga ega eng muvaffaqiyatli mamlakatlarida bolalarning to'yib ovqatlanmasligi kabi muammosi deyarli to'liqligicha yo'q qilinib, toza ichimlik suvini aholi yashash joylarigacha yetkazib berish va sanitariya sharoitlarini yaxshilashga erishildi. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali, o'lim ko'rsatkichlarining xususan, chaqaloqlar va onalar o'rtasida kamayishiga, sog'lom turmush yillarining uzayishiga olib keldi. O'zbekiston o'zining ta'lim va sog'liqni saqlash muammolarini siyosatdagi o'zgarishlar va ilg'or tajribalar orqali hal qilishga intilayotgan bir vaqtda, bu joriy islohotlarni davom ettirishni, shuningdek, islohotlardan keyingi kelajak istiqbollari haqida o'ylashni talab qiladi.

30. Tafvutlar saqlanib qolsa-da, O'zbekistonning Inson kapitali indeksi reytingi qizlar va o'g'il bolalar uchun deyarli muvozanatli bo'lib, bu kelajakda imkoniyatlardan teng foydalana olish yo'lida nihoyatda ijobiy tendentsiyadir. Jahon bankining Inson kapitali indeksi qizlar va o'g'il bolalarning 18 yoshga to'lgunga qadar ularning mamlakatlaridagi omon qolish, sog'liq va ta'lim ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda to'plashi mumkin bo'lgan inson kapitali miqdorini o'lchaydi. 2019-yilda ushbu indeks qizlar uchun 0.61, o'g'il bolalar uchun esa 0.63 ni tashkil etdi, bu shuni anglatadiki, umuman olganda, o'g'il bolalar va qizlar o'zlarining potentsial inson kapitalining taxminan 62 foizini amalga oshirishni kutishlari mumkin. O'rtacha hisobda, qizlar o'g'il bolalarga qaraganda bir oz pastroq test ballariga, ayni ta'lim olish yillari va ulg'ayganlarida ancha yuqori omon qolish darajasiga ega edilar. Biroq, inson taraqqiyoti indeksi doirasida o'lchanadigan asosiy sog'liqni saqlash va ta'limni ta'minlashdan tashqari kattaroq bo'shliqlar yuzaga kelmoqda va O'zbekiston o'g'il va qiz bolalar uchun inson kapitalini oshirish salohiyatidan orqada qolmoqda.

31. Boshlang'ich va o'rta ta'lim sohasida o'g'il va qiz bolalar o'zlashtirayotgan materiallarning sifati va mazmuni ta'lim olish imkoniyatidagi nomutanosibliklardan ko'ra ko'proq muammodir. O'zbekistonda ham o'g'il, ham qiz bolalar uchun ta'lim olishga imkoniyat teng yaratib berilgan. Biroq, O'zbekistonda tug'ilgan bola ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi kamchiliklar tufayli o'zining potensial unumdorligining atigi 62 foiziga erisha oladi. Bu tafovut qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi nomutanosiblik bilan emas, balki ta'limning umumiy sifati bilan bog'liqdir. O'zbekiston Konstitutsiyasining 41-moddasi va 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun barcha maktab yoshidagi bolalar uchun boshlang'ich va o'rta ta'lim bepul va majburiy bo'lgan holda ta'lim olishdan umumiy foydalanish imkoniyatini kafolatlaydi. Maktabda kutilayotgan ta'lim olish yillari soni hozirda 11 yilni tashkil etadi, va ularning ta'lim sifatiga moslashtirilganidan so'ng, bu ko'rsatkich qizlar uchun atigi 9,1 yil va o'g'il bolalar uchun 9,2 yilga mos keladi.¹² O'zbekiston ko'plab boshqa mamlakatlar bilan qiyoslanganda, o'g'il va qiz bolalar bo'yicha muvozanatli umumiy ta'lim natijalariga erishgan bo'lsa-da, o'g'il va qiz bolalar o'z salohiyatlarini to'laligicha namoyish eta olmayotganliklari kuzatiladi. O'zbekistonning qo'shnilar bilan solishtirganda, o'g'il-qizlar uchun maktabda kutilayotgan ta'lim olish yillari Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikasi va Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) mintaqasining (13,1) ko'rsatkichidan past. Muvofiqlashtirilgan test ballarini hisobga olganda, ayni natijalarga erishiladi. 625 ball yuqori natijalarni va 300 ball esa eng quyi natijalarni ifodalovchi shkala bo'yicha qizlar 474 ballga ega bo'lmoqda, bu esa o'g'il bolalarning o'rtacha 475 bali bilan deyarli teng. O'zbekistonning yagona tizimga keltirilgan, muvofiqlashtirilgan test ballari qo'shnilariga qaraganda yuqori (2-jadvalga qarang) bo'lib, biroq YeMOdagi o'g'il va qiz bolalarning o'rtacha ko'rsatkichidan (479) biroz pastroqdir.

2-Jadval: Markaziy Osiyoda inson kapitali ko'rsatkichlari

		Kutilayotgan maktab ta'lim yillari	Muvofiqlashtirilgan test ballari
O'zbekiston	Ayol	12.0	474
	Erkak	12.1	475
Tojikiston	Ayol	10.4	m.y.
	Erkak	11.3	m.y.
Qozog'iston	Ayol	13.8	422
	Erkak	13.6	211
Qirg'iziston	Ayol	12.9	426
	Erkak	12.9	414


Manba: Jahon bankining inson kapitali indeksi ma'lumotlar bazasi, 2020.

32. Yuqori sifatli ta'lim hisobiga inson kapitalini yaxshilash O'zbekistonning iqtisodiy o'tish davri uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. O'tish davri iqtisodiyotiga ega muvaffaqiyatli mamlakatlar barcha darajalarda ta'limga ustuvor ahamiyat beradi. Vyetnam va Estoniya kabi ta'lim sohasida ilg'or yutuqlarga ustuvorlik berilgan davlatlarda, ayniqsa, muvofiqlashtirilgan test ballarida katta ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, ko'p hollarda o'xshash mamlakatlardan o'sib ketib, o'z ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirganliklari kuzatilgan. O'tish davri iqtisodiyotiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli barchasida, ayniqsa, ish haqi ortib borayotgan talab yuqori bo'lgan tarmoqlarda oliy ta'lim muassasalariga qabul tez sur'atlar bilan o'sdi. Masalan, Polsha yalpi oliy ta'limga qabul qilish darajasini 1989-yildagi 20

¹² O'zbekistonda 2020-yil 20-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ-637-sonli qonunga muvofiq O'zbekistonda majburiy ta'lim o'n bir yilni tashkil etadi.

foizdan 2018-yilda taxminan 69 foizga oshirdi. Maktabgacha ta'lim, shuningdek, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun inson kapitalining eng katta salohiyatli yutuqlarini taklif qiladi, zero samaradorlik bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshdan boshlab investitsiyalar butun umr davomida yuqori darajadagi inson kapitali to'planishini ta'minlashga hissa qo'shadi va shuningdek, yosh bolalari bo'lgan ota-onalarning (ayniqsa, onalar) mehnat bozorida keng ishtirokini rag'batlantirishda ijobiy rol o'ynaydi. Garchi O'zbekistonda o'nlab yillar davomida umumiy ta'limga butun aholining qamrab olinishi odatiy hol bo'lib kelgan bo'lsa-da, bunda boshlang'ich va o'rta maktab ta'limi nazarda tutilib, mustaqillikdan keyingi davrda bu ifodani maktabgacha va oliy ta'limga nisbatan qo'llash mushkul bo'lib qoldi, zero har ikkala yo'nalishga ham ustuvor ahamiyat berilmay qo'yilib, yetarlicha moliyalashtirish ta'minlanmagani kuzatiladi. Ta'lim tizimida jinsiy tenglikka oid bu ikki muhim kamchilik 2017-yilda belgilangan islohotlar kun tartibining eng ustuvor masalalaridan biri bo'lgan, chunki bu kamchiliklar O'zbekistonning tez va keng qamrovli o'sish maqsadlari uchun eng dolzarb muammolardan ba'zilarini ifodalaydi.



7-Rasm: 2020/2021 o'quv yilining boshida ta'lim darajasiga ko'ra qizlar va ayollar ulushi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2021.



33. Bir paytlar orqada qolib ketayogan O'zbekiston hozirda bolalarni maktabgacha ta'lim sohasida qamrab olish ko'rsatkichi bo'yicha mintaqada yetakchilik qilmoqda. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olish yaqin vaqtgacha barcha mintaqaviy taqqoslash omillaridan ortda qolayotgan edi; shu bilan birga, maktabgacha ta'lim qamrovi yo'lidagi cheklovlar ko'pincha kambag'allik darajasi yuqori va aholining tez o'sish sur'atlari kuzatilgan viloyatlarda keng tarqalgan edi. 2018-yildagi "L2CU" so'rovnomasida qatnashgan respondentlar odatda maktabgacha ta'lim muassasalarining yetishmasligi, ayniqsa, nomutanosib ravishda uy yumushlarini ham o'z zimmalariga olgan va shu bilan birga uydin tashqarida ish faoliyatiga ega onalarga og'ir kelayotganini ta'kidladilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarining yo'qligi ularning vaqti-vaqti bilan o'z farzandlarini ishga olib borishiga majbur qilar edi. Demak-ki, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni erkin topshira olmaslik holati O'zbekistonda ayollarning mehnat bozorida ishtirokiga muhim cheklovchi omil bo'lib xizmat qilganini namoyish qilib berdi. Biroq 2017-yildan boshlab, qamrovi jadal kengayishi tufayli qamrab olish ko'rsatkichi mintaqaviy kesimda ancha oshib, 2021-yilda mos yoshdagi bolalarning 62 foizini tashkil etdi. 2020-2021-o'quv yilida 6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'limda qamrab olish majburiy etib belgilandi. Bundan tashqari, 3-6 yoshdagi bolalarni, ham qizlar va hamda o'g'il bolalarni qamrab olish darajasi 2015-yildagi 20 foizdan 2021-yilda 62 foizgacha oshdi (8-Rasm).

8-Rasm: Maktabgacha ta'lim qamrovi va maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilish



Manba: O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi.

9-Rasm: Oliy o'quv yurtlarga kirishning gender ko'rsatkichlari va STEMda ayollarning ulushi




Manba: Statistika agentligi, 2022.

34. Oliy ta'lim olish imkoniyati 2017 yildan beri uch baravar oshdi, ayniqsa ayollar foydasiga. Yaqin vaqtgacha O'zbekistonda oliy o'quv yurtlariga g'ayritabiiy darajada kam sonli talabalar qabul qilingan va ularning ichida o'nlab yillar davomida erkak bitiruvchilar soni ayol bitiruvchilar sonidan oshib ketgan. Biroq so'nggi yillarda xotin-qizlar (27,4 foiz) va erkaklar (29,0 foiz) uchun oliy ta'limga qabul qilish darajasi tez sur'atlar bilan kengaydi. 2016-2017-o'quv yili bilan taqqoslaganda, 2021-2022-o'quv yiliga kelib, bolalarni qamrab olish erkaklar uchun qariyb uch baravar, ayollar uchun esa to'rt baravar ko'paydi. Ilmiy darajaga ega bo'lganlar uchun ish haqi va bandlik stavkalari o'rta yoki kasbiy malakaga ega bo'lganlarga qaraganda ancha yuqori bo'lib, o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ish haqi taxminan 55 foizni tashkil qiladi. Oliy ta'limga qabul qilishning yaqinda kengayishi islohotdan oldin hukmron bo'lgan oliy ta'lim uchun gender tenglik

indeksining doimiy ravishda yomonlashib borayotgan tendensiyasini tezda o'zgartirdi. 1999-yilda har 100 nafar erkakka atigi 82 nafar xotin-qiz oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgan bo'lsa, 2016-yilda mamlakat Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) mintaqasidagi eng past ko'rsatkichgacha tushib, 100 nafar erkakka 62 nafar xotin-qizni tashkil qilgan. Biroq 2018-yilga kelib, ro'yxatga olingan ayollar soni har 100 nafar erkakka 79 nafargacha yetdi va 2021-yilga kelib esa, har 100 nafar erkakka 84 nafar xotin-qizni tashkil etdi. Mazkur davrda, Qoraqalpog'istondan tashqari barcha viloyatlarda ayollarning o'qishga kirishi ko'rsatkichi erkaklar sonidan tezroq oshdi. Shunday qilib, so'nggi yillarda oliy ta'limga kirishda, ayniqsa xotin-qizlar o'rtasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi, bu ilgari mavjud bo'lgan gender tafovutlarining qisqarishiga hissa qo'shib, shuning barobarida xotin-qizlar va erkaklar uchun foyda ham keltirdi. Oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalar uchun chiqarilgan buyruqqa ko'ra, 2022-yilda jami 1627 nafar ayollar va qizlarga doktorantura kvotasi ajratilgan. Ular orasida STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, gumanitar fanlar va matematika) sohasiga kirish uchun jami 965 kvota (59,3%) ajratilgan.¹³

35. Tezkor sur'atli taraqqiyotga qaramay, O'zbekistonda ayollarning oliy o'quv yurtlariga kirishi ko'rsatkichi yana ham tez o'sish salohiyatiga ega. Jahon banki tomonidan tuzilgan jahon miqyosida o'qishga qabul qilish bo'yicha taqqoslanuvchi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston oliy ta'limda gender muvozanati yo'lida jadal sur'atlarda muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa-da, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi farq mavjud bo'lib, qo'shni davlatlar Qirg'iziston Respublikasi va Qozog'iston bilan solishtirganda ko'rsatkichlari pastroq turadi. Agar 2017-yildan 2022-yilgacha oliy ta'limda erishilgan jadal kengayish sur'atlari davom etsa, O'zbekiston 2025-yilga kelib jinslar tengligini ta'limda ta'minlashi mumkin.

10-Rasm: Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda gender tengligi indeksi



Manba: Jahon taraqqiyoti indikatorlari, 2023.

36. Shunga qaramay, erkaklar hali-hanuz eng nufuzli yo'nalishlarda ko'proq o'rinlarga ega bo'lib, eng daromadli kasblar bo'yicha ta'lim olishi ham davom etmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida mavzular va kasblar bo'yicha gender segregatsiya yuqori darajada bo'lib, bu mehnat bozorida muvozanatsizliklarga sabab bo'lmoqda. 2022-yilda har 100 nafar erkakka atigi 63 nafar xotin-qizlar tadqiqotchi lavozimlarga qabul qilindi. Odatga ko'ra, xotin-qizlar eng ko'p tahsil oluvchi oliy ta'lim dasturlari asosan uchta tarmoqni

¹³ Davlat organlari tomonidan taqdim etilgan yangilangan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2023 yilda davlat oliy o'quv yurtlarida STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo'nalishi bo'yicha jami 48 451 ayol (jami 38%) ta'lim olgan. Ulardan 40 237 nafari bakalavriat dasturlarida, 8 214 nafari magistratura yoki undan yuqori dasturlarga qabul qilingan.

– ta’lim, sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni qamrab oladi, bular qishloq xo’jaligidan tashqari O’zbekistonda rasmiy ishchilar orasida eng kam maosh oladigan uchlikdir. Erkaklar transport, aloqa, savdo, qishloq xo’jaligi, sanoat va qurilishni o’rganishga moyildirlar. 2022-yilda fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) dasturlari bitiruvchilarining qariyb 36,1 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Xotin-qizlarni STEM dasturlariga ro’yxatdan o’tkazish uchun rag’batlantirish dasturlari joriy etilganidan buyon 2019-yildan boshlab bunday dasturlarda xotin-qizlarning ishtiroki jadal kengayib bormoqda.

Tadqiqot ma’lumotlari: Tengsizlikni qisqartirishga qaratilgan harakatlar ishlaydimi? Hindistonda kast, jins, kollej sifati va akademik muvaffaqiyat omillari

Zamonaviy Hindistondagi davlat siyosati ko’p asrlik kasta tuzilishi va jinsga qarab turlicha munosabat tarixidan kelib chiqadigan tengsizlikni qisqartirishga qaratilgan ijobiy harakatlar dasturlarini o’z ichiga oladi. Biz shunday harakatlar dasturining ta’sirini o’rganamiz: 200 dan ortiq muhandislik kollejlarda, kam ta’minlangan kastalar va ayollar uchun umumiy bo’lgan foizli kvotani belgilovchi o’qishga qabul qilish siyosati. Dastur maqsadli talabalarning kollejdagi, ayniqsa, nisbatan yuqori sifatli o’quv yurtlaridagi davomatini oshirishini ko’rsatib beramiz. Tashvishlanarlisi shuki, tengsizlikni qisqartirishga qaratilgan harakatlar mo’ljallangan benefitsiarlarga ularni yaxshi tayyorlanmagan akademik dasturlarga joylashtirish orqali zarar yetkazib qo’yishi mumkin. Biz bunday salbiy ta’sirlar haqida hech qanday dalilga duch kelmadik.

Bagde, Surendrakumar, Dennis Eppe va Louell Teylor. "Tengsizlikni qisqartirishga qaratilgan harakatlar ishlaydimi? Hindistonda kasta, jins, kollej sifati va akademik muvaffaqiyat omillari". Amerika iqtisodiy sharhlari, 106.6-son (2016): 1495-1521.

37. Ta’lim sohasida davomli muvozanatsiz qamrov qisman oilalardagi hukmron gender me’yorlari bilan bog’liq. O’zbekiston qishloqlaridagi xotin-qizlar oliy ta’lim olishda qo’shimcha to’siqlarga duch kelishmoqda, chunki oliy o’quv yurtlarining aksariyati Toshkent yoki viloyat markazlarida joylashgan. Bu ko’pincha xotin-qizlardan oliy o’quv yurtlariga borish uchun uydan tashqarida yashashni talab qiladi, ko’p oilalar esa bunga rozi bo’lmaydi. Jahon bankining Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi so’rovnomasida ayollar (52 foiz) va erkak (57 foiz) respondentlarning aksariyati – erkaklar xotin-qizlarga nisbatan universitetda ta’lim olishda ustuvor huquqqa ega ekanligini qayd etdilar. Bu qisman samaraliroq moliyaviy sarmoya sifatida ko’rilganligi bilan bog’liq.

38. Ta’lim dasturlariga tanlov namunaviy o’rnak shaxs borligi bilan chambarchas bog’liq. Ko’pgina dalillar shuni ko’rsatadiki, jinsiga mos keladigan rol namunalari (boshqacha aytganda muvaffaqiyatli va ilhomlantiruvchi deb hisoblangan va erishish mumkin bo’lgan maqsadlarga misol bo’lib xizmat qiladigan odamlar) ning yo’qligi qizlarning ta’lim sohalariga kirishiga to’sqinlik qiluvchi eng ta’sirli omillardan biridir. Masalan, ko’pincha "erkaklar uchun mos" deb qabul qilinadigan ta’lim sohalarida (ko’pincha STEM sohalaridagi kasblar) qizlar uchun yaxshi rol namunalari kam, shuningdek, odatda "ayollar uchun mos" deb hisoblanadigan mutaxassisliklarda (ko’pincha, g’amxo’rlik bilan bog’liq kasblar), erkak talabalar uchun samarali rol modellari kam. Ko’pgina hollarda, ayniqsa, raqobat yuqori bo’lgan sohalarida ayollarga mos keladigan muvaffaqiyatli rol namunalari yetarli emas, bu esa ularning ushbu fanlarga qiziqishining yetishmasligiga va boshqa ta’lim yo’nalishlarini afzal ko’rishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir jinsdagi mutaxassislar kam bo'lgan fanlarga kelsak, ushbu jinsdagi mutaxassislarning muvaffaqiyati misollari bilan tanishish ushbu kasbga bo'lgan qiziqishni mutaxassis bilan

Tadqiqot ma'lumotlari: Ayni va qarama-qarshi jinsdagi bitiruvchi-ma'ruzachilarning Iqtisodiyot kursiga bo'lgan qiziqishni orttirishiga ta'siri

Mikroiqtisodiyot bo'yicha kirish kurslarida erkak va ayol bitiruvchilar tomonidan berilgan ma'ruzalar talabalarining iqtisodiyotga bo'lgan qiziqishiga qanday ta'sir ko'rsata oladi? Talabalarining transkript ma'lumotlaridan foydalangan holda, ma'ruza bilan chiqqan bitiruvchilarning kelgusi kursga o'tayotganlarga ta'sir ko'rsatish darajasini modellarda baholab chiqdik. Ushbu modellar professorlarning va umuman semestr davomida qayd etilgan ta'sir darajalari, talaba darajasidagi kovariantlarni o'z ichiga olgan nazorat guruhi sifatida ishlanmagan ma'ruzalardan foydalanadi. Bitiruvchi-ma'ruzachi "Iqtisod" fani bo'yicha kursning davomatini o'rtacha 2,1 foiz punktiga (11%) oshirdi. Talabalar o'zlari bilan ayni jinsdagi ma'ruzachilarga nisbatan ancha ijobiyroq munosabatda bo'lishi aniqlandi, xususan, erkak kishi ma'ruzachilar ular targ'ib qilgan kurslarga o'g'il talabalarining yozilishini 36% ga, ayol ma'ruzachilar esa qiz talabalarining ularning kurslarini tanlashini 40% ga oshiradi, bu esa bitiruvchi tomonidan berilgan ma'ruzalarning o'ziga xos ta'siri uning jinsiga bog'liqligidan dalolat beradi.

Patnaik, Arpita va boshqalar. Ayni va qarama-qarshi jinsdagi bitiruvchi-ma'ruzachilarning quyi kurs talabalarida Iqtisodiyot faniga bo'lgan qiziqishlariga ta'siri. w30983-son. Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi, 2023.

bir xil jinsdagi talabalar tomonidan sezilarli darajada oshirishi mumkin. Misol uchun, tadqiqotlarga ko'ra, matematika va tabiatshunoslik kurslarida qizlarga tasodifiy ravishda ayol o'qituvchilar tayinlanganda, mazkur qizlar tomonidan keyinchalik ushbu fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan kurslar tanlanishining ehtimoli o'sdi. Qizlar va o'g'il bolalarga ta'lim va ish faoliyatidagi o'sishlari uchun yangi imkoniyatlarini ochib beradigan rol namunalari bilan ko'proq o'zaro muloqot qilishni ta'minlash – intilishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va o'quv qamrovidagi gender muvozanatni yaxshilashga yordam beradi.

Sog'liqni saqlash

39. O'zbekistonning o'tish davridagi iqtisodiyoti sifatliroq tibbiy xizmat va sog'liqni saqlash sohasidagi natijalarning yaxshilanishini talab qiladi. Davlat sog'liqni saqlash xizmatlarini yaxshilash, ayniqsa, chaqaloqlar va onalar o'limining pasayishiga olib kelishi va insonlarning mehnat bozorida o'tkazadigan yillari sonini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash xizmatlarini yaxshilash bolalarning to'g'ri oziqlanmasligiga barham berish hamda toza ichimlik suvidan foydalanish va yaxshilangan sanitariya sharoitlarini ta'minlash uchun dolzarbdir. Sog'liqni saqlash tarmog'i amaliyoti va uning natijalarida, ayniqsa, ona va bola salomatligi, reproduktiv salomatlik va yuqumli bo'lmagan kasalliklar (NCD) bo'yicha genderga asoslangan nomutanosiblik keng tarqalgan. Eraklarning erkaklik haqidagi an'anaviy tushunchalarga sodiqligi ko'pincha tibbiy yordamga murojaat qilishlariga to'sqinlik qiladi, ayollar salomatligi muammolari odatda ko'pincha faqat jinsiy, reproduktiv yoki onalik salomatligi bilan bog'liq bo'lsa, jiddiyroq qabul qilinadi. Turmush tarzi va odatlaridagi, shuningdek, ayniqsa, yuqumli bo'lmagan kasalliklar yuki nuqtai nazaridan gender farqlari erkaklar va ayollar o'rtasida umr ko'rish davomiyligining katta farqiga olib keladi.



40. Garchi O'zbekiston tibbiy xizmat va sog'liqni saqlash bilan bog'liq ayrim ijobiy natijalarga erishgan bo'lsa-da, jiddiy kamchiliklar hali-hanuz saqlanib kelinmoqda. Sog'liqni saqlash vazirligining xabar berishicha, barcha tug'ilishlar malakali tibbiyot mutaxassisleri tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, deyarli barcha ayollar antenatal yordam oladi. So'nggi o'ttiz yillikda chaqaloqlar va onalar o'limi sezilarli darajada kamaydi. Masalan, go'daklar o'limi darajasi 1990-yilda har 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa qariyb 34,6 nafar o'lim to'g'ri kelgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2018-yilga kelib, 9,2 gacha pasaydi va bu shubhasiz, sezilarli yaxshilanishdir. Biroq, hozirgi ko'rsatkich hali ham Estoniyada qayd etilgan ko'rsatkichdan 9, Polshani 3,5 va Turkiyani 2 barobarga yuqori. 2021-yilda O'zbekistonda besh yoshgacha bo'lgan har 100 nafar bolaning 11 nafari noto'g'ri oziqlanishi natijasida bo'y-bo'stining o'sishidan orqada qolgan (UNICEF, 2022). UNFPA ma'lumotlariga ko'ra, onalar o'limi auditori shuni ko'rsatadiki, tuman tug'ruqxonalari vafot etgan onalarning 60 foizi yaxshi jihozlangan shifoxonalarga yuborilishi va ularni saqlab qolish mumkin edi. Qolaversa, O'zbekistonda katta yoshdagilarning omon qolish darajasi mintaqadagidan ortda qolmoqda, xususan, erkaklarda (83%) omon qolish darajasi ayollarga (90%) nisbatan ancha past. Nihoyat, qamrovning nisbatan yuqori ko'rsatkichlariga qaramay, O'zbekistondagi sog'liqni saqlash tizimi xizmatlar sifatini cheklaydigan shaxsiy cho'ntagidan xarajatlarni to'lash holatlari ko'pligi va ayollarga nomutanosib ta'sir ko'rsatadigan sezilarli geografik farqlar kabi muammolarga duch kelmoqda.

2-Iqtibos: 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidan parcha

60-maqсад: *Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish. 46 ta tumanlararo perinatal markazlarni tashkil etish, ularni kadrlar, zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan ta'minlash. Yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.*



41. Garchi so'nggi 30 yil ichida O'zbekistonda umr ko'rish davomiyligi sezilarli darajada yaxshilangan bo'lsa-da, u o'tish davri iqtisodiyoti yuqori samarali mamlakatlaridan hali ham ortda qolmoqda va bu farq ayniqsa erkaklar orasida katta. 2019-yilda ayollarning o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi 77,4 yoshni tashkil etdi, bu erkaklarning o'rtacha umr ko'rish (72,8) davomiyligidan yuqori. 1990-yildan boshlab umumiy o'rtacha umr ko'rish davomiyligi bir xil sur'atlarda o'sib bormoqda, ammo ayollar foydasiga 4-5 yillik gender farqi mavjud (11-Rasmga qarang). Bu ko'rsatkichlar Yevropa va Markaziy Osiyodagi (YeMO) o'rtacha ko'rsatkichdan to'rt yildan ortiqroq past.

11-Rasm: Tug'ilishda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi va onalar o'limi darajasi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi.

12-Rasm: O'smirlik davrida homilador bo'lish (har mingta ayolga tug'ilishlar soni, 15-19 yoshlilar)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi.

42. O'zbekistonda o'rtacha umr ko'rish davomiyligining pasayishiga yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ortib borishi ta'sir qiladi, bu ayniqsa erkaklar o'rtasida turmush tarzidagi tanlovlar bilan belgilanadi. O'zbekistonda erkaklar va ayollarning umumiy salomatligiga yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ortib borayotgani ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, mamlakatda bevaqt o'limlarning 84 foizi yuqumli bo'lmagan kasalliklarga to'g'ri keladi. 2019-yilda 30 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan yurak-qontomir kasalliklari, saraton, qandli diabet yoki surunkali respirator kasalliklardan o'lim holatlari ayollarda 21,2 foizni, erkaklarda esa 29,8 foizni tashkil etdi, bu Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) mamlakatlaridagi o'rtacha ko'rsatkichdan deyarli ikki baravarga ko'p. Erkaklar orasida keng tarqalgan turmush tarzidagi odatlar, shu jumladan tamaki iste'moli (2018-yilda 23,3 foiz, ayollarda 1,3 foiz), spirtli ichimliklarning yuqori iste'mol qilinishi (2016-yilda aholi jon boshiga yiliga 4,8 litr toza alkogol) va jarohatlar bilan bog'liq o'lim holatlarining yuqori ko'rsatkichlari (2019-yilda 15-59 yoshlilarning 19,4 foizi jarohatdan vafot etgan) yuqori noinfektsion kasalliklar uchraydigan holatlarining asosiy sababchilaridir. Ortiqcha vaznli (2016-yilda

47,3 foiz) yoki ortiqcha semirib ketgan (2016-yilda 13,8 foiz) erkaklar soni ham ortib bormoqda. Ortiqcha vaznli yoki ortiqcha semirib ketgan ayollarning darajasi ham doimiy ravishda o'sib bormoqda, 2016-yilda ayollarning 49 foizi ortiqcha vaznli va 19 foizi semirib ketgan deb hisoblangan. Xotin-qizlar orasida bachadon bo'yni saratoni ayniqsa keng tarqalgan. Ushbu kasallik xotin-qizlar orasida eng ko'p uchraydigan saraton kasalliklari ro'yxatida ikkinchi va umumiy o'lim holatlari ro'yxatida esa uchinchi o'rinda turadi. Bachadon bo'yni saratoni haqida xabardorlik darajasi past, ayniqsa qishloq ayollari orasida, biroq Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikdagi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va UNFPA ushbu muammoni hal qilish uchun butun mamlakat bo'ylab bachadon bo'yni saratoni skriningi va odam papilloma virusi (HPV) bo'yicha testlash chora-tadbirlarni o'tkazish hamda davolash dasturini amalga oshirib kelmoqda.

13-Rasm: Yoshi kattalar orasida ortiqcha semirishning tarqalganligi, jins bo'yicha, 2021



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2021.

43. Kontratseptiv vositalardan foydalanish kamayib bormoqda. Jismoniy shaxslarning reproduktiv salomatligini himoya qilish va kontratseptiv vositalardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan qonunchilikka qaramay, ulardan foydalanish qisqarmoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, kontratseptiv vositalardan foydalanish darajasi 2007-yildagi ayollarning 56,4 foizidan 2020-yilda atigi 43,2 foizigacha pasaydi. Gormonal kontratseptiv vositalardan foydalanish darajasi past bo'lib, bachadon ichi kontratsepsiyasi tomon og'ishi kuzatilmoqda. 2021-yildagi rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu kontratsepsiya barcha mavjud usullarning 94 foizini tashkil qiladi. UNFPA ma'lumotlari bo'yicha, bachadon ichi kontratsepsiya vositalari, ayniqsa ayollar o'rtasida kamqonlikning nisbatan yuqori tarqalishini hisobga olganda, hamma xotin-qizlar uchun ham mos kelavermaydi, aksincha kutilmagan homiladorlik va oilani rejalashtirishda qoniqarsiz natijalar xavfi o'sishiga olib keladi. Bu 2020-yilda 12,8 foiz homiladorlik holatlarida o'z aksini topgan.

44. Ham bo'y past qolib ketishi, ham temir tanqisligidagi xududiy tafovutlar tashvishga sabab bo'lmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 1990-yildagi yangi tug'ilgan 1000 nafar chaqaloqlarda o'g'il bolalarda 80,3 nafar, qizlarda 63,4 nafardan 2020-yilda o'g'il bolalarda 13 nafar, qizlarda 10 nafar holatgacha kamaygan. Boshqacha aytganda, o'g'il va qiz bolalarning besh yoshga to'lgunga qadar tirik qolishlari umumiy imkoniyati 98% ga teng. Emlash harakatlari orqali yovvoyi poliomeliti (2002-yilda tasdiqlangan), shuningdek, qizamiq va qizilcha (2017 y.) kasalliklari yo'q qilindi. 1996-yilda besh yoshgacha bo'lgan bolalarning 39,5 foizida bo'yi past qolib ketishi kuzatilgan bo'lsa, 2017-yilga kelib bu raqam 8,7 foizgacha kamaydi. Ushbu ijobiy o'zgarishlar tan olinishga arzigulik

bo'lsa-da, bolalarda bo'yi pastlik, o'sishdan qolish darajasi mintaqaviy ko'rsatkichlardan, shu jumladan Polshanikiga nisbatan ham haligacha yuqori (2020-yilda 2,3 foiz). Xududlararo farqlar ham diqqatga sazovordir. Bo'y o'sishida qolib ketish muammosining tarqalishi darajasi Toshkent shahridagi 2,7 foizdan Sirdaryo viloyatidagi 15,1 foizgacha o'zgarib turadi. Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida besh yoshgacha bo'lgan yosh bolalar o'rtasida bo'yni o'sishida qolib ketish respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori. Umuman olganda o'g'il bolalarda (9,2 foiz) rivojlanish sur'atlari, qizlarga (8,2 foiz) nisbatan birmuncha yuqori bo'lsa-da, qishloq joylarida qizlarning bo'yi o'sish sur'atlari o'g'il bolalarga (8,5 foiz) nisbatan bir oz yuqori (8,8 foiz)¹⁴. Tanada temir tanqisligi va kamqonlik ham besh yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'sir qiladigan muammolardandir. Besh yoshgacha bo'lgan bolalarning 14,7 foizida kamqonlik keng tarqalgan, bunda o'g'il bolalar (16,1 foiz) qizlarga (13,1 foiz) nisbatan bir oz yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega, kamqonlikning to'rtidan uch qismi tanada temir tanqisligi bilan bog'liq bo'lib, bu besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasida nihoyatda yuqori ko'rsatkichdir. Temir tanqisligining o'rtacha tarqalish darajasi 54,7 foizni tashkil etadi, shu jumladan o'g'il bolalarda (57 foiz) qizlarga (51,7 foiz) qaraganda yuqori. Shuningdek, temir tanqisligining tarqalishi shaharlarda (57,6 foiz) qishloq hududlaridan (54,3 foiz) yuqori.

45. O'zbekiston davlat xizmatlaridan erkin foydalanish imkoniyatlari masalasini hal qilishga intilmoqda, biroq bunda hududiy nomutanosibliklar alohida olingan muammo sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda so'nggi yigirma yil ichida asosiy turmush sharoitlari izchil ravishda takomillashgan bo'lsa-da, shahar-qishloq va viloyatlararo nomutanosiblik, ayniqsa, ayollarning uy ishlariga sarflagan vaqti va jismoniy salomatligiga ta'sirini hisobga olgan holda, keskinligicha qolmoqda. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi so'rovnomasida qatnashgan uy xo'jaliklarining 98 foizida ayollar suv tashish, ovqat pishirish, idish yuvish va kir yuvish uchun mas'ul ekanliklari aniqlangan.

IV — Iqtisodiy imkoniyatlar

46. Jadal o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan mamlakatlarda xotin-qizlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish alohida ahamiyatga ega. Agar xotin-qizlar jamiyatning iqtisodiy hayotida erkaklar bilan teng ishtirok etganlarida edi, O'zbekiston milliy daromadi qariyb 29 foizga yuqoriroq bo'lar edi. Agar ishlayotgan ayollar erkaklar oladigan teng maoshni olsalar edi, ortib borayotgan daromad 700 mingdan ortiq odamni kambag'allikdan olib chiqar edi. O'tgan o'n yilliklar davomida o'tish davri iqtisodiyotlari va yuqori daromadli mamlakatlar o'rtasida xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki keskin oshdi. Bir paytlar xotin-qizlar erkaklar bilan solishtirganda pastroq ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsa, ko'plab rivojlangan iqtisodiyotlarda oliy o'quv yurtlarini bitirish ko'rsatkichlari hozir ayollar orasida ancha yuqori. Gender identifikatsiya va oilaviy majburiyatlarga oid me'yorlar o'zgarib, erkaklar oila a'zolariga g'amxo'rlik ko'rsatish, parvarishlash va uy yumushlarini o'z zimmalariga olishi, ayollar esa haq to'lanadigan mehnatda tobora faol bo'lishi kuzatilmoqda. Qonunchilik va davlat dasturlaridagi o'zgarishlar ko'p hollarda mazkur o'zgarishlarga hissa qo'shdi. Natijada, iqtisodiyot kengayib, shaxs, uy xo'jaliklari va milliy darajalardagi daromad oshishi yuz bermoqda.

¹⁴ UNICEF Oziqlanish bo'yicha so'rovnoma, 2019.

Tadqiqot ma'lumotlari: Yaponiyada ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokining o'sishidan chiqarilgan saboqlar

Qirq yildan ko'proq vaqt davomida amerikalik ayollardan ortda qolib ketgan yaponiyalik yosh xotin-qizlar endilikda AQShdagi mehnat bozoridagi ayollarning ishtiroki darajasidan oshib ketishdi... 2000-yilda Yaponiyaning balog'at yoshidagi ayollarning mehnat bozoridagi ishtirok darajasi bor-yo'g'i 66,5 foizni tashkil etar edi, bu OECDning o'rtacha ko'rsatkichidan past va AQShnikidan esa 10 foiz punktga pastdir. O'sha davrdan beri, 2016-yilda AQShdagi ko'rsatkich darajasi 74,3 foizgacha pasaydi, Yaponiyada esa 76,3 foizgacha ko'tarildi ...

Xotin-qizlar ish joylari sifatining doimiy ravishda saqlanib qolishini ta'minlanishi bilan, ularning mehnat bozoridagi ishtirokida o'zgarishlarning iqtisodiy ta'siri nihoyatda kattadir. Agar 2000-yildan 2016-yilgacha AQShning kuchga to'la yoshdagi ayollari yaponiyalik hamkasblari darajasida yutuqlarga erishganlarida edi, Qo'shma Shtatlardagi YaIM 2016-yilda mavjud ko'rsatkichdan 800 milliard AQSh dollarga (4 foizdan ortiq) va bu o'z navbatida, kishi boshiga yalpi ichki mahsulotni 2500 dollar farqiga oshirar edi.

Shambaugh, Jey, Rayan Nann va Becca Portman. "Yaponiyada ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokining o'sishidan saboqlar". Hamilton loyihasi (2017).

47. O'zbekistonda so'nggi paytlarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishi yanada inklyuziv o'sishni ta'minlashga qaratildi. Ilgari O'zbekistonning rivojlanish modelida og'ir sanoat va jismoniy kapitalga investitsiyalar ustunlik qilgan. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida ish o'rinlari yaratish bo'yicha cheklangan yutuqlarga erishildi va inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa, maktabgacha va oliy ta'limga nisbatan e'tibordan chetda qoldi. Bu ish o'rinlarining tanqisligiga, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga va ishchi kuchining yuqori qo'shimcha qiymatli faoliyatga tayyor emasligiga olib keldi. So'nggi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish bilan birga, ko'proq rasmiy bandlik va tadbirkorlikni yaratishga, ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan. Ammo bu ustuvorliklarning o'zi o'sishning inklyuzivligini ta'minlash uchun yetarli emas. Boshqa o'tish davridagi iqtisodlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, muvaffaqiyatli o'tishga erishish va inklyuziv o'sishni rag'batlantirish uchun jarayonga barcha fuqarolarni, ayniqsa ayollarni, jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

3-Iqtibos: 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasidan parcha


85-maqсад: [Y]angi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish. ... Ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish. Ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bandlik va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish

48. Xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki 2021-yilda erkaklarga qaraganda 28 foizga past bo'ldi – bu yuqori daromadli mamlakatlardagi o'rtacha tafovutdan (15 foiz) deyarli ikki baravarga ko'p bo'lib

Rossiya (10 foiz) va qo'shni Qozog'iston (12 foiz) kabi mamlakatlarikidan ancha yuqori. Umuman olganda, O'zbekistonning mehnat bozoridagi gender tafovuti Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) (14 foiz) va YeMONing yuqori daromadli mamlakatlarni (19 foiz) hisobga olmaganda yuqoriroqdir. Shu bilan birga mazkur ko'rsatkich umumiy global gender tafovuti bilan (27,4 foiz) solishtirilishi mumkin va u past o'rta daromadli mamlakatlardagi ushbu tafovutdan (42 foiz) sezilarli darajada past. Shunisi e'tiborliki, O'zbekistonning mehnat bozoridagi gender tafovuti boshqa o'tish davri iqtisodiyoti davlatlari – Estoniya (6,2 foiz) va Polsha (14,6 foiz) – kabilariga qaraganda ancha yuqori¹⁵. Biroq, O'zbekiston va Markaziy Osiyo bo'ylab mehnat bozorida ishchi kuchining ishtiroki ko'rsatkichlari keng ko'lamli bo'lib, bunda mehnat bozorida ayollarning deyarli yo'qligidan tortib, ularning 80 foizdan ortiq darajada ishtiroki kuzatilishi mumkin (14-Rasm). Natijalarning xilma-xilligi O'zbekistondagi qoloq hududlarda ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish amaliyoti va yondashuvlarini aniqlash uchun xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki yuqori bo'lgan qo'shni o'lkalarga murojaat qilishi mumkinligini belgilaydi.

14-Rasm: 2021-yilda tumanlar darajasida xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtirok etish ko'rsatkichlari




Manba: O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'istonning uy xo'jaliklari byudjetini o'rganish asosida kichik hududlarda Jahon banki ishchi kuchini baholash yuzasidan taxminlar, taxm. 2021-yilgacha.

49. Yosh xotin-qizlar orasida bandlik darajasi xavotirli darajada past. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) mintaqasidagi eng yosh mamlakatlardan biri sifatida O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining o'sib borayotgani kambag'allikni qisqartirish va umumiy farovonlikni oshirish uchun katta imkoniyatdir. Ammo yoshlarning katta qismi, ayniqsa yosh xotin-qizlar orasida mehnat bozoriga kirish yoki qo'shimcha ma'lumot olish yo'lida bir qator qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Yoshlar orasida ishsizlik darajasi yuqori va bandlik natijalari ish xavfsizligi, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy himoya va ish haqi jihatidan yomonroq. Hech qachon ishlamagan, ta'lim olmagan yoki kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan (NEET) 15-25 yoshdagi yigitlarning ulushi 8,8 foizni, va bu yosh guruhidagi xotin-qizlar orasida esa 42 foizni tashkil etdi¹⁶.

¹⁵ Jahon banki, 2022. 2019-yilda 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun mehnat bozoridagi ishtiroki bo'yicha XMTning modellashtirilgan hisob-kitoblariga asoslanadi.

¹⁶ Jahon banki xodimlari tomonidan uy xo'jaliklar byudjetlari so'rovnomasidan foydalangan holda baholash. Baholashda bandlikning norasmiy va ro'yxatdan o'tmagan shakllari hisobga olinadi. So'rovga asoslangan bandlikni

15-Rasm: O'zbekistonda bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari, 2022




Manba: O'zbekiston uy xo'jaliklari byudjetini o'rganish, 2022 (chapda), O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2021 (o'ngda).

50. Mehnat bozorida gender tafovuti yoshga qarab o'zgarib turib, oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish majburiyatlari bilan bog'lik. Mehnat bozorida gender tafovut yoshga qarab farqlanadi, ayollar va erkaklar o'rtasida sezilarli farqlanish mavjud. Uy xo'jaliklari byudjeti tahliliga ko'ra, 2022-yilda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarning atigi 13 foizi va erkaklarning 40 foizi ish bilan ta'minlangan, natijada gender tafovut 27 foizni tashkil etadi (15-Rasm). 25-34 yosh guruhlarida o'rtasida gender tafovuti sezilarli darajada katta bo'lib, xotin-qizlar bandligi erkaklar o'rtasidagi 93 foizga nisbatan 37 foizni tashkil etdi. Bu turmush qurgandan so'ng, ayollarning uy vazifalari va bola parvarishiga ustuvor ahamiyat berishi zaruriyati to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari bilan bog'liqdir. 2022-yilda ishlamagan mehnatga layoqatli ayollarning taxminan 75 foizi buni uy xo'jaligi va bolalarni parvarish qilish majburiyatlari tufayli ishlamaganini ta'kidladi va ayollarning bu sabablarga ko'ra ishlamaslik ehtimoli erkaklarnikiga qaraganda 30 baravar yuqori (16-Rasm). O'zbekistondagi gender me'yorlari xotin-qizlardan bola parvarishi va ko'p vaqt talab qiladigan uy yumushlari uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlarini talab qiladi.¹⁷ Jahon bankining O'zbekistondagi qishloq turmushi sharoitida tirikchilik manbalari borasidagi sifatli tahlili shuni ko'rsatdiki, ayollar kuniga 3-6 soat suv tashish, ovqat pishirish, uy tozalash, hovli bog'idagi ishlar va qaramog'idagi kishilarga g'amxo'rlik qilish kabi uy yumushlariga sarflashadi. (Romanova va b. 2017)

16-Rasm: nafaqaga chiqmaganlarning ishlamayotganligi sabablari va so'nggi 7 kun ichida amalga oshirilgan har qanday ish, 2022

baholash rasmiy ma'lumotlarning to'liq emasligi bilan bog'liq muammolarni hal qiladi, chunki ular barcha uy xo'jaliklari va shaxslarni teng tanlov ehtimoli bilan qamrab oladi, rasmiy ma'lumotlar esa boshqa tanlov yondashvi bilan cheklangan.

¹⁷ O'zbekistonda ayollarning qariyb 100 foizi va erkaklarning 90 foizi ayolning eri ishlamasa ham ayol uy yumushlarini bajarishi kerak, deb hisoblaydi. ("O'tish davridagi hayot" so'rovnoma, 2016).



51. 2022-yildagi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda erkaklar xotin-qizlarga nisbatan o'rtacha 34 foizga ko'p maosh oladi. Jahon miqyosida xotin-qizlar o'rtacha erkaklar ish haqining 80 foizini ishlab topadi. Biroq O'zbekistonda bu farq kattaroq: ayollar erkaklar ish haqining 66 foizinigina ishlab topadi¹⁸. Xotin-qizlar vakolati ta'minlangan bo'lsa, ular o'zlarining to'liq salohiyatlarini ishga solishlari mumkin, bu esa ishchi kuchini xilma-xil va dinamik bo'lishiga olib keladi. Ammo O'zbekistonda xotin-qizlar o'rtasida ish haqi va ish bilan bandlik darajasining pastligi to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiyot hajmini qisqartirib, kambag'allikda yashayotganlar sonini oshiradi. 17-Rasmda aks ettirilganidek, ayollar ham o'rtacha kamroq maosh olishadi va hamda ularda eng yuqori daromad darajasiga erishish ehtimoli sezilarli past bo'ladi. Agar O'zbekiston bo'ylab xotin-qizlar mehnat bozorida erkaklar bilan teng ishtirok etganlarida edi, milliy daromad 29 foizga yuqori bo'lardi. Ishlayotgan ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'rtacha ish haqini tenglashtirishning o'zi 700 mingdan ortiq odamni kambag'allikdan olib chiqar edi.

17-Rasm: 2022 yilda erkaklar va ayollar o'rtasida oylik ish haqi hajmlarining taqsimlanishi



Manba: Jahon banki xodimlarining uy xo'jaliklari byudjeti tadqiqotidan foydalangan holda baholashi, 2022-yil


Eslatma: O'tgan oyda ish haqi olgan to'liq va to'liq bo'lmagan kunlik ishchilar kiritilgan.

52. Jahon banki so'rovnomalarida ishtirok etgan respondentlar odatda ayollarning erkaklarga nisbatan kamroq maosh olishi va kasbiy segregatsiya tushunchasini qo'llab-quvvatlaydi. Erkaklar odatda oilaning asosiy boquvchisi sifatida tasavur qilinadi. Minimal ish haqi ham erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida farq

¹⁸ <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/iqtisodiy-resurslar>

qiladi, ish izlayotgan xotin-qizlar erkaklarga qaraganda ancha past maosh olishga tayyor turishadi. Kasbiy segregatsiya, gender me'yorlari va tasavvurlar ish haqi to'lovida gender tafovutni yanada kuchaytiradi. Gender ish haqi farqi qurilish, yuk tashish va saqlash kabi erkaklar ustunlik qiladigan sektorlarga nisbatan ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ish kabi ayollar ustunlik qiladigan sohalarda o'rtacha maoshi pastligi bilan chuqurlashadi. O'zbekiston 2019-yilda ayollar uchun ayrim ish o'rinlari taqiqlanishini rasman bekor qilgan bo'lsa-da, bu ishga qabul qilish amaliyotida gender asosidagi kamsitishlarga chek qo'ymadi. Darhaqiqat, 2020-yilda o'tkazilgan yaqinda o'tkazilgan auditorlik tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, ayollar ustunlik qiladigan kasblardagi erkaklarga qaraganda ayollarning arizaga javoban qayta qo'ng'iroq qilish ehtimoli 185 foizga, erkaklar esa erkaklar ustunlik qiladigan kasblardagi ayollarga qaraganda 79 foizga ko'proq ehtimolga ega (Murodova va Seitz, 2021). Ushbu kuchli gender tarafkashligi mehnat bozorini gendernga bog'liq segmentatsiyalashga olib keladi. Ushbu kamsitish amaliyoti O'zbekistonda gender tengsizligini davom ettirib, xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtirok etishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Bunday amaliyotlarni bartaraf etish yanada inklyuziv va adolatli mehnat bozoriga erishish uchun nihoyatda muhimdir. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar xodimlarining o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (jinsidan qat'iy nazar) yuk tashish va saqlash sohasidagi ish haqining qariyb yarmini tashkil etdi.

18-Rasm: Ishga qabul qilish va ish haqi bo'yicha ayollarga nisbatan noxolislikni aniqlaydigan tajribalar



Manba: Jahon banki xodimlarining 2021-2023-yillarda O'zbekiston fuqarolari o'rtasida o'tkazilgan so'rovga asoslangan baholariga ko'ra.

53. Jahon banki tadqiqoti natijalari O'zbekistonda ish haqini belgilashda ayollarga nisbatan oshkorona, tizimli tushdagi noxolis munosabat mavjudligini namoyon etdi. So'rovnoma eksperimentida (Seitz, 2023) tasodifiy vinyetkalardan foydalanilgan bo'lib, unda taniqli kasb egasi (masalan, shifokor yoki o'qituvchi) bo'lgan ishchi tasvirlangan va oxirida har bir hikoyada ishchiga ish haqi miqdori ko'rsatilgan. Hikoyalar to'qib chiqarilgan va standartlashtirilgan bo'lib, unda barcha ishchilar bir xil tarzda tasvirlangan edi, faqat birgina xususiyati farqli bo'lgan: hikoyalarning yarmida ayol, ikkinchi yarmida esa erkak kishi ismi aks ettirilgan edi. Ishtirokchilarga ta'riflangan shaxsga maosh o'rtiqcha past, adolatli miqdorda yoki ortiqcha to'lanyaptimi, degan savol berildi. Ikki oy davomida Markaziy Osiyo bo'ylab daromadlarning adolatligiga 70 000 dan ortiq baholash javoblari jamlandi. Garchi so'rovnomalarda berilgan vaziyatlar o'xshash bo'lgan bo'lsa ham, gipotetik vaziyatlarda ayol aks ettirilgan bo'lganda ish haqi o'ta oshirilgan degan fikrni respondentlarning 13 foizi ko'proq bildirishgan, erkak kishi aks etirilganda esa uning oyligi o'ta past ekanligini 34 foizga ko'proq respondentlar qayd etishgan.


Tadqiqot ma'lumotlari: Maoshdagi genderga bog'liq tafovut yuzasidan oddiy haqiqat

Bugungi kunda [Qo'shma Shtatlarda] 18 yoshga yetmagan bolalari bo'lgan onalarning 42 foizi o'z oilalarining asosiy yoki yagona boquvchisi hisoblanadi. Oilalar kun kechirish uchun ayollarning ish haqiga tobora ko'proq tayanishi tufali, maoshdagi gender tafovut bevosita erkak va bolalarga ham ta'sirini o'tkazmoqda. Maoshdagi genderga bog'liq farqni bartaraf etish ayollar, ularning oilalari va iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi. Xotin-qizlarning ish haqini ular bilan ayni yoshdagi va ta'lim darajasidagi erkaklar maoshiga tenglashtirish orqali gender asosidagi ish haqidagi farqni bartaraf etish barcha ishlaydigan ayollar uchun, ularning oila tuzilishidan qat'iy nazar, kambag'allik darajasini ikki baravarga qisqartirar edi. Gender asosida ish haqidagi tafovutini bartaraf etish iqtisodiyot rivojiga ham turtki bo'lib xizmat qiladi. Xotin-qizlarga teng ish haqini ta'minlash iqtisodiyotda o'tkaziladigan to'lovlarni 513 milliard dollarga oshiradi, bu esa 2016-yilgi yalpi ichki mahsulotning 3 foizini tashkil etadi.

Miller, Kevin va Debora J. Vagins. " Maoshdagi genderga bog'liq tafovut yuzasidan oddiy haqiqat".

54. Xotin-qizlarning bandligi xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ko'proq o'z aksini topgan (19-Rasm), bu tendentsiya gender me'yorlari va hukmron tasavvurlar bilan kuchaytirilgan. Davlat sektori xotin-qizlar uchun rasmiy ish joylarining asosiy manbai bo'lib kelmoqda. Unda mamlakatdagi ayollarning 69 foizi va erkaklarning 48 foizi faoliyat yuritadi, bu asosan ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida ayollarning yuqori konsentratsiyasi bilan belgilanadi. Ayollar qurilish (94 foiz erkaklar), transport va xizmat ko'rsatish (93 foiz erkaklar) kabi erkaklar hukmronlik qiladigan ayrim sohalar bilan solishtirganda pastroq maosh to'lanadigan ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalarida kamida 75 foiz lavozimlarni egallab kelishadi. O'zbekiston qishloqlarida qishloq xo'jaligida ishlash 2021-yildagi hosilda mamlakat paxta terimchilarining uchdan ikki qismini tashkil etgan ayollar uchun asosiy daromad manbai bo'lib xizmat qildi. Bu terimchilarning kamida 49 foizining paxta terimidan olingan maoshi ularning yillik pul daromadlarini aks ettirdi (XMT 2022). Pandemiya davrida 2021-yildagi paxta terimida bu raqam biroz yuqori bo'lgan, bu davrda terimchilarning 60 foizi paxtani yil davomidagi hosil yagona daromad keltirgan deb atagan (XMT 2021). Xotin-qizlarning paxta terimida ham, boshqa qishloq xo'jaligi ishlarida ham ishtirok etishi ko'pincha norasmiy bo'ladi, zero ular kamdan-kam hollarda o'z xo'jaliklarini boshqarishadi yoxud yerga ega bo'lishadi. O'zbekistonda fermer xo'jaliklarining atigi 5 foizini ayollar boshqaradi (OTB 2018). Jahon bankining sifatli tahlili shuni ko'rsatdiki, erkaklar qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ishlash ko'nikmalariga egaligi va butun ish kuni davomida dalada boshqa ishlarga chalg'imasdan ishlay olishi tufayli ularni doimiy ishchi sifatida yollashga talab yuqoriroq bo'ladi (Jahon Banki 2016).


19-Rasm: Ja'mi bandlikning tarmoqlar va jinslar bo'yicha ulushi, 2021



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi 2021.

55. O'zbekistonda ayollar va erkaklar o'rtasidagi bandlik imkoniyatlarining nomutanosibligiga yashash hududi ham ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning har bir mintaqasida erkaklarning bandlik darajasi ayollarga qaraganda yuqori bo'lsa-da, gender tafovutining darajasi sezilarli farq qiladi. Masalan, Samarqand viloyatida bandlikdagi gender tafovuti 50 foiz bo'lsa, Farg'ona viloyatida 22 foiz bo'lib sezilarli darajada kamroq.


20-Rasm: Jinslar va hududlar bo'yicha bandlik, 2022



Manba: Jahon banki xodimlari O'zbekiston uy xo'jaliklari byudjeti so'rovnomasi, 2022 yilgi hisob-kitoblar asosida.

56. Ishchi kuchi ishtiroki va bandlik darajasidagi gender tafovuti ta'lim darajasi va uy xo'jaligida yashovchi bolalar soni bilan bog'liq. Umumiy o'rta va undan past ma'lumotga ega bo'lgan xotin-qizlarning atigi 10 foizi, to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lganlarining 33 foizi ishlaydi, erkaklarda bu ko'rsatkichlar 15 va 77 foizni mos ravishda tashkil etadi. Biroq, bakalavriyat yoki undan yuqori darajaga ega bo'lgan xotin-qizlarning 74 foizi ishlaydi. Bu bandlik kesimidagi bakalavr darajasiga ega bo'lgan erkaklarning 92 foizi bilan taqqoslanadi (21-Rasm). Qolaversa, farovonlikning eng quyi ikki kvintilidagi xotin-qizlar (16 yoshdan yuqori) 50 foizdan ortiq hollarda nafaol yoki ishsiz edilar, holbuki, farovonlikning eng quyi kvintilidagi erkaklarning 39 foizi va ikkinchi eng past kvintildagi erkaklarning 32 foizi nafaol yoki ishsiz edi.¹⁹ Ayol va erkaklarning yosh farzandlari mavjudligi ham ularning mehnat bozoridagi ishtirokiga turlicha ta'sir qiladi. Erkaklar uchun ko'proq yosh bolalarning mavjudligi ishlash ehtimolini oshiradi, ammo ayollar uchun esa ko'proq bolalar bo'lgan taqdirda uydin tashqarida ishlash ehtimoli ancha past (21-Rasm).

21-Rasm: Ma'lumot darajasi va uy xo'jaligi tarkibi bo'yicha bandlik



Manba: Jahon banki mutaxassislarining O'zbekiston uy xo'jaliklari budjetini o'rganish asosida baholashicha, 2022-yil.

57. O'zbekistonda xorijga migratsiyaning atigi 10 foiz ulushini xotin-qizlar tashkil etadi. Mazkur migratsiyadagi gender tafovut xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini pasaytiradi, zero ular kam maoshli, ish faoliyatlarida o'sishga kam imkoniyat beruvchi past malakali ishlarda qolib ketishadi. Ushbu holat xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqillikka erishishi va oilalarini boqishini qiyinlashtirishi mumkin, bu esa o'z navbatida, kambag'allik va tengsizlik davrlarini uzayishiga olib kelishi mumkin. Xotin-qizlarga nisbatan ijtimoiy va madaniy munosabat O'zbekistondagi migratsiyadagi gender tafovutiga hissa qo'shadi. Ko'pgina hollarda ayollar o'zlarining jinsi tufayli mehnat bozorida kamsitish va cheklangan imkoniyatlarga duch kelishlari mumkin, bu esa ularning ish bilan ta'minlanishi yoki lavozimlarida ko'tarilishini qiyinlashtirishi mumkin. Bu ham migratsiyadagi gender tafovutiga hissa qo'shishi mumkin, chunki xotin-qizlar o'z yurtida iqtisodiy istiqbollari yaxshilashi uchun kamroq imkoniyatlarga ega ekanliklarini tushunishlari mumkin. Migratsiyaga kirishni mamlakatlararo tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, teng huquqlarning

¹⁹ O'zbekiston fuqarolarini tinglaymiz, 2019. Boshlang'ich so'rovnoma asosida xodimlarning baholashicha.

yaxshilanishi kambag'al mamlakatlardan ayollarning migratsiya qilishiga to'sqinlik qiladigan moliyaviy va ijtimoiy xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi

58. Ishdan ayrilishga duch kelganda, ayollar va keksa ishchilar o'zlarini yanada zaifroq holatda topadilar.

Ham "Uy xo'jaligi byudjetini o'rganish", ham "L2CU" so'rovnomalariga ko'ra, rasmiy ishdan ketganlar uchun ish qidirish muddati taxminan 10,6 oyni tashkil qiladi. Shu o'rinda, davlat korxonasida ishini yo'qotganidan keyin ishsizlik muddati jinsga qarab nomutanosib davom etadi, xususan erkaklar uchun bu muddat 8,9 oyni tashkil qilsa, ayollarda o'rtacha 12,1 oyga teng bo'ladi. Bundan tashqari, keksa yoshdagi ishchilar uzoqroq ishsizlik davrini boshdan kechirishadi, 55-64 yoshdagilarning yangi ish topishi uchun o'rtacha 12 oy talab qilinsa, 25-34 yoshdagilar uchun bu muddat odatda 9,6 oyga teng bo'ladi.

Qonunchilik tuzilmasi

59. O'zbekistonning avvalgi mehnat kodekslari xotin-qizlarning ishga qabul qilinishda va maosh olishda tengligini cheklab qo'ygan edi, biroq mehnat qonunchiligiga kiritilgan so'nggi o'zgarishlar mamlakatni tenglikka yaqinlashtirmoqda va ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirmoqda. 2023-yilda

Jahon bankining "Ayollar, gender va huquq" indeksida O'zbekiston 100 dan 70,6 ballga ega bo'ldi, bu Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) mintaqasidagi ko'rsatkichi (83,4) dan pastroq. O'sha paytda mamlakatda teng qiymatdagi ishni bajarganlik uchun teng haq to'lashni talab qiluvchi mehnat qonunchiligining yo'qligi, shuningdek, ayollarning ayrim mehnat shakllarida ishlashi taqiqlangani O'zbekiston umumiy reytingining pasayishida muhim omil bo'lgan. Biroq, Jahon banki va XMTning keng ko'magi bilan 2021 yil dekabr oyida mehnat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar teng ish uchun teng haq to'lash, yollash va ishdan bo'shatishda kamsitishni taqiqlash, erkaklar va ayollar uchun muntazam ta'til va ota-ona ta'tilini kengaytirish kabi qoidalar qo'shildi.²⁰ Ushbu so'nggi o'zgarishlardan avvalroq iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilgan edi. 2019-yil sentabr oyida O'zbekistonda ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar, ishga joylashishda kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, davlat xizmatlaridan teng foydalanish hamda davlat va jamiyat ishlarida teng ishtirok etishni kafolatlovchi gender tengligi to'g'risidagi qonun qabul qilindi. 2019 yilda Prezident farmoni bilan ayollarning ba'zi kasblarda ishtirok etishidagi barcha cheklovlar bekor qilindi.²¹

60. Biroq, saqlanib kelayotgan gender me'yorlari va hukmron tasavvurlar hali-hanuz xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanishiga to'sqinlik qilmoqda. Xotin-qizlarning mehnat bozoriga kirishiga to'sqinlik qiladigan oshkor huquqiy to'siqlar ko'p bo'lmasa-da, qiyinchiliklar qolmoqda. Prezident tomonidan 2023-yil aprelda imzolangan yangi qonun shahvoniy shilqimlikni ma'muriy huquqbuzarlik deb belgiladi. Ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mehnat qonunchiligi ish beruvchilarning ayollarni yollashga bo'lgan qiziqishini kamaytirishi mumkin, chunki ular ayollarning ishi qimmatroq bo'ladi deb o'ylashlari mumkin (Romanova va b., 2017). Masalan, O'zbekistonning mehnat qonunchiligi xotin-qizlarning ish vaqtidan tashqari ishga jalb qilinishi, xizmat safarlarga chiqishi bilan bog'liq cheklovlarni o'z ichiga olgan va shu bilan birga, endilikda erkak va ayollarga taqdim etilayotgan ota-ona ta'tili ham ish beruvchilarga qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, zero xotin-qizlar erkaklarga qaraganda mazkur tur ta'tilidan ko'proq foydalanishadi degan fikr vujudga keladi. Bundan tashqari, xotin-qizlarning mehnat

²⁰ Qonunda bolaning otasi, bobosi va buvisi yoki bolani parvarish qiladigan boshqa qarindoshlari, shuningdek vasiylari ta'tildan to'liq yoki qisman foydalanishi mumkinligi nazarda tutilgan (mehnat kodeksining 405-moddasi).

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4235-son qaroriga muvofiq, 2019 yil 1 maydan boshlab ayrim sohalarida yoki kasblarda xotin-qizlar mehnatiga qo'yilgan taqiqlar bartaraf etildi.

bozorida va davlat idoralarida ishtirok etishini rag'batlantirish siyosatiga qaramay, e'tiroflar shuni tasdiqlaydiki, ishga tanlanish jarayonida ayollardan ko'pincha ularning oilaviy va onalik holati to'g'risida savollar so'raladi va javoblari asosida ishga qabul qilinmaslik holatlari keng uchraydi.

61. Ota-onalik ta'tillari yaqin vaqtgacha xotin-qizlarning xususiy sektorda kamsitilishiga sababchi bo'lib kelgan. Diskriminatsiya xavotirlari tufayli mamlakatlarning atigi 26 foizi tug'ruq ta'tillari nafaqalarini ijtimoiy sug'urta mexanizmlari o'rniga ish beruvchilarning majburiy badallari orqali moliyalashtiradi. Yaqin vaqtgacha O'zbekiston bu ozchilik orasida edi. Ushbu ish beruvchi tomonidan moliyalashtiriladigan dekret ta'tiliga qo'yiladigan talablar xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga sababchi bo'lib, davlat sektori ish beruvchilariga xususiy sektordagilarga nisbatan ko'proq afzalliklar taqdim etar edi. Davlat korxonalari va davlat sektori uchun dekret ta'tillari to'lovlari davlat tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa-da, rasmiy xususiy sektor ish beruvchilari ushbu xarajatlarni to'g'ridan-to'g'ri qoplashlari shart edi, bu esa o'z navbatida, xususiy sektor xodimlarining ishga yollash chog'ida ayol nomzodlariga nisbatan diskriminatsion qarorlar qabul qilish yoki ularni norasmiy lavozimlarda ishlatish kabilar uchun kuchli moliyaviy sabablarni keltirib chiqarar va buning ehtimolini oshirar edi. 2022 yildagi islohotlar XMTning Onalikni himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi tavsiyalari va xalqaro amaliyotga mos keltiradi. Diskriminatsiya bilan bog'liq muammolar tufayli, dunyo miqyosida mamlakatlarning atigi 26 foizi dekret ta'tilini ijtimoiy sug'urtalash mexanizmlari orqali emas, balki ish beruvchilarning majburiy badallari orqali moliyalashtiradi. 2022 yilda amalga oshirilgan islohotlar O'zbekistonni XMT onalikni muhofaza qilish Konvensiyasi tavsiyalariga va xalqaro amaliyotga to'liq rioya qilishga yaqinlashtirmoqda.²²

Xotin-qizlarning korxonalaridagi va tadbirkorlikdagi roli


62. 2018-2022-yillarda ro'yxatga olingan tadbirkorlar orasida ayollar ulushi 9 foizga o'sdi. 2018-yilda rasmiy mikrofirm va kichik korxonalarining 31 foizi ayollar nomiga ro'yxatga olingan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu raqam 40 foizdan ortig'iga to'g'ri keldi. Mikrofirm va kichik korxonalarda ayollarning eng yuqori ulushi Qoraqalpog'iston, Navoiy va Xorazm viloyatlariga to'g'ri kelib, viloyatlararo umumiy ko'rsatkichning mos ravishda 51, 48 va 46 foizini tashkil etdi. Biroq, 2018 va 2022-yillar oralig'ida ayollar tomonidan boshqarilayotgan, eng jadal sur'atlarda o'sayotgan korxonalarining ulushi ko'plab hududlar gender tenglikda eng katta tafovutlarga ega bo'lganlari edi. Bu davrda Samarqand viloyatida ayollarga tegishli ulush 31 foizgacha, Farg'ona viloyatida esa qariyb 39 foizgacha o'sdi. 2018-yilda ayollar tadbirkorligi ulushi eng past bo'lgan Namangan viloyatida 2022-yilga kelib 59 foizdan ko'proqqa oshgan. "O'zbekiston fuqarolarini tinglaymiz" so'rovnomasida butun mamlakat bo'ylab qatnashgan mahalla raislari reprezentativ ro'yxatiga ko'ra, 2023-yilning birinchi choragida 15 foiz mahallalarning ko'mitalari xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini imtiyozli kreditlashni faol rag'batlantirib, bu borada ko'maklashdi; 58 foiz mahallalar esa xotin-qizlarning malakasini oshirish bo'yicha dasturlarni faol amalga oshirib kelmoqda.

63. Biroq, xotin-qizlarning biznesga ega bo'lishi va uni yuritishi yo'lida bir qator to'siqlarga duch kelishi holatlari davom etmoqda. Erkaklar va ayollarning kichik bizneslarga egaligi hajmi jihatidan tobora o'xshash bo'lib borayotganligi sari, ayol kishi egaligidagi o'rta va yirik bizneslarning yetishmasligi tobora keskinlashib bormoqda, va cheklangan miqdordagi holatlar ayollar boshqaruvidagi bizneslarning o'rta yoki yirik hajmga o'sishining cheklangan soni tobora ko'zga tashlanmoqda. Jahon bankining 2019-yilda o'tkazilgan so'nggi so'rovnomasiga ko'ra, o'rta hajmdagi firmalarning atigi 29 foizida ayollar ulushi ishtirok etgan bo'lsa (O'zbekiston kabi o'rtachadan past daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 37

²² 2022-yildan boshlab barcha yuridik shaxslardagi ayollarga, jamoat tashkilotlari bundan mustasno, har oy uchun eng kam iste'mol xarajatlari summasidan kelib chiqqan holda, davlat byudjetidan onalik nafaqalari to'lanadi (Prezidentning 2022-yil 25-iyuldagi PF-175-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 515-sonli qarori).

foizga teng), yirik firmalarga kelsak, bu ko'rsatkich 27 foizgacha (quyi o'rta daromadli mamlakatlar ko'rsatkichlariga taqqoslaganda) tushib qolgan. O'rta hajmdagi firmalarning atigi 7 foizida va yirik firmalarning 2,5 foizida ayollar yuqori boshqaruv lavozimlari tarkibiga kirgan (quyi o'rta daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 18 va 20 foizni tashkil etadi).

22-Rasm: Ayollarga tegishli kichik korxonalar ulushi va ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlar, 2022



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2022.

64. Raqamli aloqa bilan ta'minlanganlik darajasi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlaridagi gender tafovut ayollarning tadbirkorligi va ularning umumiy bandligini kengaytirishga to'sqinlik qiladi. O'zbekiston raqamli ulanish bo'yicha tengdosh davlatlaridan sezilarli darajada orqada qolmoqda va mamlakatdagi raqamli texnologiyalar tarmog'i katta gender tafovutlariga ega. So'nggi o'n yil ichida raqamli infratuzilmaga katta sarmoyalar kiritilganiga qaramay, O'zbekistonda statsionar va mobil keng polosali qamrovi 100 nafar kishi aholiga 13,9 va 67 nafar kishini tashkil etdi, bu o'z tengdosh davlatlaridan ancha past ko'rsatkichlar. O'xshash mamlakatlar orasida O'zbekiston 4G qamrovi bo'yicha eng past o'rinda turadi. Shuningdek, O'zbekistonda o'xshash mamlakatlarga nisbatan keskinroq bo'lgan sezilarli gender farqlari mavjud, masalan, O'zbekistondagi erkaklarning 77 foizi ayollarning 59 foiziga nisbatan mobil telefonlarga ega. Aksincha, qozog'istonlik erkaklar va ayollarning deyarli bir xil ulushi mobil qurilmalarga ega (erkaklarning 88 foizi va ayollarning 88,6 foizi). O'zbekistonning qo'shnilari va global internet hamkorlari bilan tashqi raqamli aloqasi zaifdir. O'zbekistonda internet tezligi, o'tkazish qobiliyati va foydalanish xarajatlarining xududiy foydalanuvchilariga salbiy ta'siri davom etmoqda va ko'plab tarmoqlarda iqtisodiy o'sishni cheklab qo'yimoqda.

Tadqiqot ma'lumotlari: Amerikada kim ixtirochi bo'ladi?

Tug'ilgandan boshlab ... shaxslarni kuzatib, patent uchun topshirilgan arizalar asosida kim ixtirochi bo'lib yetishishini belgilaydigan asosiy omillarni aniqlaymiz. Natijalarimiz innovatsiyalarni targ'ib qilishda aynan qaysi siyosiy yo'nalishlar eng samarali bo'lishi mumkinligiga oydinlik kiritadi, xususan, ayollar, ozchilik guruhlari va kam ta'minlangan oilalar farzandlari o'rtasida innovatsiyalardan foydalanishni kengaytirish soliq stavkalarini kamaytirish kabi an'anaviy yondashuvlarga qaraganda innovatsiyalar va o'sishni rag'batlantirishda ko'proq salohiyatga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi....

Ixtirochilar ko'p bo'lgan hududlarda ulg'aygan va shu tariqa ulg'ayish jarayonida innovatsiyalar ta'sirida ko'proq bo'lgan bolalarning o'zlari kelajakda ixtirochi bo'lib yetishishining ehtimoli yuksakroq bo'ladi... Bu kabi ta'sir genderga ham bog'lik. Ayol ixtirochilar ko'p bo'lgan hududda o'sgan qizlarining texnologiya sinfida ixtirochilik bilan shug'ullanishi ehtimoli ko'proq. Erkak ixtirochilar atrofida o'sish ayollarning ixtirochilik bilan qiziqishiga ta'sir qilmaydi. Va o'g'il bolalarga kelganda ham aynan shunday, ularning u yoki bu sohadagi innovatsion natijalarga erishishiga ayol-ixtirochilar emas, balki erkak-ixtirochilar ta'sir ko'rsatadi.

Bell, Aleks, va boshq. "Amerikada kim ixtirochi bo'ladi? Innovatsiyalarning ta'siri ahamiyati." Choraklik iqtisodiyot jurnali 134.2 (2019): 647-713.

65. Hukumat, ayniqsa, ayollar va yoshlar uchun iqtisodiy o'sishning asosiy kuchi sifatida mikro va kichik biznesga ustuvor ahamiyat bermiqda. Tadbirkorlik sohasidagi va ish o'rinlarini yaratish borasidagi muammolarni hal etish maqsadida 2018-yilda hukumat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda o'zini o'zi band qilishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Har bir oila – tadbirkor" va "Yoshlar – kelajagimiz" nomli ikkita dastur ishga tushirildi. Bu dasturlar mahalliy iqtisodiy ehtiyoj va imkoniyatlarni aniqlash asosida aholining maqsadli qatlamlariga imtiyozli kreditlar ta'minlaydi. Ushbu sa'y-harakatlarga qaramay, mavjud bank kanallari ham kam ta'minlangan aholi bilan ishlash bo'yicha cheklangan tajribaga ega. Qolaversa, mikrofirmalar va kichik korxonalar egalari texnik va biznes ko'nikmalariga ega emasliklari haqida xabar berishgan edi, bu esa ularning bizneslarini kengaytirish va yirikroq kredit olish huquqiga ega bo'lishlariga to'sqinlik qilgan. Ayollar egalari bo'lgan kichik va o'rta korxonalar qo'shimcha muammolarga duch kelishadi, chunki ularning hajmi cheklangan resurslar va salohiyat tufayli kichikroq bo'ladi.

66. Hukumat qishloq ayollariga yo'naltirilgan ko'plab tadbirkorlik va yakka tartibdagi bandlik dasturlarini amalga oshirib kelmoqda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va Bandlik vazirligi tomonidan mahalla miqyosida turli xil ijtimoiy yordam, tadbirkorlik va yakka tartibdagi bandlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 36 ta alohida dastur amalga oshirildi, jumladan, bir martalik moliyaviy o'tkazmalar, bolalar va yoshlar uchun stipendiyalar, tikuv mashinalari uchun subsidiyalar, hamda jamiyat tomonidan tashkil etilgan ("Ayollar daftari", "Temir daftar" va "Yoshlar daftari") ehtiyojlar ro'yxati orqali belgilanadigan maqsadli nafaqalar. Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash maqsadli jamoat fondi tomonidan moliyalashtiriladigan va barcha tumanlarda tashkil etilgan Ayollar tadbirkorlik markazlari; 2022-yildan boshlab Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi ayollarga qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish uchun subsidiyalar bilan bir qatorda ayollar uchun imtiyozli kreditlar berishni boshladi. "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" nomli jamoatchilik asosidagi taraqqiyot dasturlari ham yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlarni ajratdi. ("Ishga Marhamat") Mono-markazlardagi o'quv ko'pincha kasbiy mutaxassisliklar bo'yicha ish qidirayotgan ayollar talab qiladigan kasb va ko'nikmalarga qaratilgan dasturlarni o'z ichiga oladi. Biroq,

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar ko'p hollarda maqsadli guruhlarning tabaqalashtirilgan ehtiyojlariga moslashtirilmagan. IFC hisoboti shuni ko'rsatdiki, mikromoliyaga asoslangan keng tarqalgan yechimlar to'lash imkoniyati cheklangan benefitsiarlarni jalb qiladi (Naheed, 2019).

67. O'zbekistonda yer egaligi to'g'risidagi qonunlar va siyosatlar rasmiy ravishda gender-neytral bo'lsa-da, ayollarning yer egaligidan foydalanish imkoniyati hali hanuz cheklangan bo'lib qolmoqda, ayniqsa qishloq joylarida ayollarning rasmiy yer egaligi nomutanosib ravishda kam. O'zbekistonda har qanday fuqaro, jinsidan qat'iy nazar, hech qanday cheklovlarisiz²³ "Elektron auksion" orqali ishtirok etish va yerlarni yutib olish huquqiga ega. Biroq, gender-neytral tartibga solinishiga qaramay, yerga egalik huquqi ko'pincha uy xo'jaligi boshlig'i, odatda bu yoshi katta erkak kishi nomiga beriladi. Qo'shma mulk huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish qonuniy turmush qurgan ayollar uchun erga egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

V — Ovoz va agentlik

68. "Agentlik" (iroda erkinligi) bu zo'ravonlik, qasos olinishi va qo'rqinchdan holi ravishda o'z hayoti yuzasidan qaror qabul qilish va kerakli natijaga erishish uchun mazkur qarorlar asosida harakat qilish qobiliyatidir. Agentlik, kundalik hayotning turli sohalarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlar erkinligi orqali o'lchanadigan bir qobiliyatdir (Klugman va b. 2014). Agentlikni o'lchashning bir usuli bu odamlardan ularning hayotlarining qaysi sohalarida nazoratga ega ekanliklarini so'rash orqali amalga oshiriladi, ushbu sohalar zo'rlashdan ozodlik, jinsiy va reproduktiv sog'liqni saqlash huquqlari ustidan nazorat, yer va uy-joy ustidan nazorat qilish hamda ovoz va jamoaviy harakat qilish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Genderga asoslangan diskriminatsiyani taqiqlovchi tegishli huquqiy tuzilma agentlikni ta'minlashning mutlaq shartidir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar gender tengligini yanada qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy tuzilmani takomillashtirishga intilmoqda. Lekin alohida olingan kuchli huquqiy tuzilmaning mavjudligi yetarli emas. Agentlikni ta'minlashga intilsak, huquqiy tuzilmalarni hayotga tatbiq etuvchi kundalik amaliyotlar orqali amalga oshirilishini talab qiladi. Me'yorlar, qarashlar va amaliyotlarni yaxshilash jamiyatning qo'llab-quvvatlashi va ishtirokini talab qiladi. O'zbekistonning iqtisodiy o'tish davrida ayollar va erkaklarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotda to'liq va erkin ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash yo'llarini topish qiyin vazifa bo'lib qolmoqda.

²³ Masalan, 2023 yilning yarim yilligida fuqarolarga dehqonchilik uchun tanlov asosida yer ajratishda g'olib bo'lgan jami 643,000 nafar g'olibning 302,000 nafari yoki 47% ayollar edi. Xususan, Andijonda 50,343 ayolga 77,000 gektar yer, Namangan viloyatida 46,575 ayolga, Farg'ona viloyatida 38,235 ayolga, Buxoro viloyatida 28,344 ayolga, Xorazm viloyatida 24,436 ayolga va Surxondaryo viloyatida 19,756 ayolga yer berilgan.

Tadqiqot ma'lumotlari: Iqtisodiy erkinlikning xotin-qizlar ta'limi va bandligiga sababli ta'siri

...Iqtisodiy erkinlikdagi katta va barqaror yutuqlar xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokiga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu ularning ishchi kuchidagi foizi yoki ayollarning ishchi kuchi tarkibidagi ulushi shaklida o'lchanadi. Iqtisodiy erkinlikdagi jadal yutuqlarning boshlang'ich ta'limni tugatgan (tegishli yosh guruhidagi) xotin-qizlar soniga ta'sirini tahlil qilganimda, o'xshash ijobiy va muhim ta'sirlar ko'rinib qoladi. Bu natijalar ham iqtisodiy ahamiyatga ega; EFW indeksining jadal o'sishi ko'rib chiqilgan mamlakatlardagi boshlang'ich maktabni tugatgan xotin-qizlar sonining tegishli nazorat guruhlardagi sodir bo'lgan o'zgarishlar hajmiga nisbatan 6 foizdan ko'proq o'sishiga olib keladi. Mazkur topilmalar ushbu mavzu bo'yicha boshqa adabiyotlar bilan mos keladi, lekin ular iqtisodiy erkinlik va ayollarning mehnat juchida ishtirok etish hamda maktab ta'limi o'rtasidagi sabab va oqibat bog'liqligini ilk bor isbotlovchi dalillardir.

Grier, Robin. Iqtisodiy erkinlikning xotin-qizlar ta'limi va bandligiga sababli ta'siri. (2023).

69. O'zbekistondagi so'nggi islohotlar ayollar va erkaklar o'z ovozi va agentligini amalga oshirishlariga to'sqinlik qiladigan bo'shliqlarni nishonga olgan. Gender tengligini ta'minlash, gender asosidagi kamsitishni bartaraf etish va teng mehnat uchun teng ish haqi kabilarga oid qonunchilikdagi o'zgarishlar O'zbekistondagi islohotlarning gender omilining hisobga olinishini ta'minlash yo'lidagi say'-harakatlarining misolidir. Biroq, jamoat hayotida ishtirok etish, ayniqsa ayollar uchun, cheklangan qolmoqda. Ayollarning adolat tizimida teng muomalada bo'lishi va zarar ko'rmasdan erkin gapirish va harakat qilish huquqlari qiyin vazifa bo'lib qolmoqda, bunga asosiy sabab muvozanatsiz gender me'yorlari. Konstitutsiya va qonunlar tomonidan ayollarga jamoat ishtirokida teng huquqlar kafolatlanishi va teng muomala va'da qilingan bo'lsa-da, qo'llab-quvvatlovchi qonunlar tez-tez ijro etilmaydi va erkaklarning ustun qarashlari ayollar agentligini cheklashda davom etmoqda. Ayollar jamoat hayotining barcha darajalarida yetarlicha vakillik qilmaydilar va O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'ravonlik qonunga zid bo'lsa-da, u hali ham keng tarqalgan.


Milliy va mahalliy darajalarda jamoat hayotida ishtirok

70. Qonunchilik tuzilishi ayollarga jamoat hayotida ishtirok etish huquqini beradi, biroq qoidalarga rioya qilmaslik va gender me'yorlari uning samaradorligini pasaytiradi. Sovet davrida O'zbekiston xotin-qizlari 1938-yilda saylash va saylanish huquqiga ega bo'ldilar; shuningdek, Konstitutsiya ayollarning hokimiyatning barcha tarmoqlarida har qanday lavozimni egallash huquqlarini kafolatlaydi. Ayollar siyosatda (jumladan, senat raisi, qonunchilik palatasi spikeri va bosh vazir o'rinbosari) muhim rollarga ega bo'ldi. 2004 yilda O'zbekistonda milliy va xududiy darajalarda nomzod kvotalarini joriy etildi, shuningdek saylov qonunchiligi har bir siyosiy partiya tomonidan Oliy Majlisga, shuningdek, viloyat, tuman va shahar deputatlari kengashlariga nomzod qilib ko'rsatilganlarning kamida 30 foizi ayollar bo'lishi kerakligini belgilaydi. Bu kabi kvotalar doimiy ravishda kuchli jamoatchilik qo'llab-quvvatlashidan bahramand bo'ldi. (23-Rasm)²⁴. Biroq, kvotalarga rioya qilmaslik uchun qonuniy jazo choralari yo'q va hukumatning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud tarmoqlaridagi ayollar vakilligi umuman past darajada qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollarga Qarshi Har Qanday Diskriminatsiyani Bartaraf Etish Bo'yicha

²⁴ O'zbekistonda, RIDP loyihasi kvotalardan foydalanishni muvaffaqiyatli boshlab berdi, unda Mahalla Rivojlanish Birligi (MRB) a'zolarining 50 foizini ayollar tashkil etishi talab qilinadi. 2023 yil iyun holatiga ko'ra, dastur 3,550 nafar ayolni MRB a'zolari sifatida jalb qilgan va ularga yig'ilishlar o'tkazish, ma'lumotlarni kommunikatsiya qilish va guruh qarorlarini qabul qilishda yordam berish kabi rahbarlik ko'nikmalarini berdi.

Konventsiyasi qo'mitasi 2015 yilgi yillik hisobotida, O'zbekistondagi fuqarolik ro'yxatga olish tizimi (bu saylovchilar ro'yxatini tuzadi) doimiy yoki vaqtinchalik ro'yxatdan o'tmagan, erkak boshli uy xo'jaliklarida yashaydigan ayollarning ovoz berish imkoniyatlarini cheklashi mumkinligidan ogohlantirgan bo'lsa-da, ro'yxatga olish tizimini liberalizatsiya qilishga qaratilgan so'nggi islohotlar bu tashvishning jiddiyligini kamaytirgan bo'lishi mumkin.

23-Rasm: Hukumatdagi ayollar, toifalarga ko'ra 2018-2022



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023) va "O'zbekiston fuqarolarini tinglaymiz" so'rovnoma (2023).

71. So'nggi yillarda jamoat hayotida ayollar vakilligining oshishi kuzatilmoqda, lekin tenglikdan hali uzoq. 2022 yilgi saylovlardan so'ng, ayollar Oliy Majlis (Oliy Majlis) Senatidagi o'rinlarning 25 foizini, Qonunchilik palatasidagi o'rinlarning 32 foizini va sud lavozimlarining 12,8 foizini egalladi. (33- va 34-rasmlarga qarang). Bu, parlamentning quyi palatasidagi ayollar sonining ikki baravarga oshirilishini va ularning umumiy ulushini 32 foizga ko'tarilishini o'z ichiga oldi. 2004 yilda joriy qilingan kvotalar ayollar vakilligini oshirish natijasini berdi va garchi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida ayollar vakilligi yaqinda oshgan bolsa ham, O'zbekiston gender tenglikka to'liq darajada hali erisha olmadi. Ayniqsa, viloyat va hududiy darajadagi qaror qabul qilish organlarida ayollar vakilligi nihoyatda past. 2023 yilda 14 ta viloyat va Toshkent shahridagi hokim lavozimini erkak kishilar egalladi. 2017-yilda ommalashtirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 84 nafar *hokim* o'rinbosarlaridan atigi 14 nafari (16,67 foiz) ayol kishi bo'lgan. Ayollar tuman darajasida birmuncha ko'proq vakillikka ega bo'lib, 2017-yilda 1772 nafar tuman *hokimi* o'rinbosarining 193 nafari (25 foiz) tashkil etgan.²⁵

72. Mahalliy jamoalarda qaror qabul qilish jarayoni va yig'ilishlarda gender tafovutlari sezilarli darajada mavjud. Jahon Banki tomonidan 2021-yilda yig'ilgan Qishloqni Qamrab Oluvchi Rivojlanish Loyihasi (RIDP) so'rov ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 12 oy ichida qishloq jamoatchilik yig'ilishida ishtirok etgan erkaklar soni 85 foizni tashkil etgan bo'lsa, ayollar orasida bu ko'rsatkich atigi 62 foizni tashkil qiladi. 30 dan 50 yoshgacha bo'lganlar orasida, erkaklar o'zlarining afzalliklarining sarflar qarorlarida ayollarga qaraganda

²⁵ Kvotalar odatda davlat xizmatchilari orasida ayollar vakilligining ma'lum foizini belgilaydi, masalan Bangladesh va Pokistonda barcha davlat xizmat lavozimlarining 10% ayollar uchun balgilangan, yoki Hindistonda bo'lgani kabi, boshqaruv organlarida – bu yerda ayollar kamida mahalliy hukumat Kengashlaridagi barcha o'rindiqlarning uchdan bir qismini to'ldiradilar. Hindistonda kvotalarning o'rnatilishi 1993 yildan beri milliarddan ortiq ayollarning mahalliy boshqaruvda xizmat qilishiga olib keldi.

yaxshiroq aks etishini his qiladiganlar foizi ko'proq (taxminan 8 foizlik farq). Ayollar mahalliy ayollarning ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga erkaklarga nisbatan ko'proq umid qiladilar: ayol javob beruvchilarning 69 foizi ayollarni ta'sirchan deb hisoblaydi, bu esa erkak javob beruvchilarning 62 foiziga qaraganda ko'proq. Shunga qaramay, jamoat investitsiya ustuvorliklari bo'yicha afzalliklar jihatidan erkaklar va ayollar o'rtasida sezilarli farq yo'q edi, ikkalasi ham mahalliy infratuzilma va xizmatlar to'g'risidagi qarorlarda o'z afzalliklarining yaxshi aks etishini bir xil darajada aytishgan.

Tadqiqot ma'lumotlari: Gender kvotalari va o'rtacha erkakning inqirozi: Shvetsiyadan Nazariya va Dalillar

...butun aholining daromadlari bo'yicha umumiy ro'yxat ma'lumotlariga asoslanib, 7 ta partiya, 290 ta munitsipalitet va 10 ta saylovda (1982–2014-yillar uchun) qatnashgan barcha siyosatchilarning malakasini o'lchash o'tkazildi. Biz mahalliy partiyalarga saylov byulletenlarida erkaklar va ayollar navbatini almashinuvchi o'zgaruvchan kvotasini qanday qo'llashganligini so'raymiz, bu kvota 1993-yilda Sotsial Demokratik Partiya tomonidan joriy etilgan. Meritokratiyaga zid bo'lmagan holda, bu kvota ayollar vakilligini eng ko'p oshirgan joylarda erkak siyosatchilarning malakasini oshirdi..

-- Besli, Timoti va boshqalar. *Gender kvotalari va o'rtacha erkakning inqirozi: Shvetsiyadan Nazariya va Dalillar. Amerika iqtisodiy sharhlari, 107.8-son (2017): 2204-2242.*

Genderga asoslangan zo'ravonlik

73. Genderga Asoslangan Zo'ravonlik (GAZ) global muammo bo'lib, butun dunyo bo'ylab xotin-qizlarga ta'sir qilib, ularning faoliyat erkingli hamda farovonligiga ta'sir qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1993-yildagi Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi Deklaratsiyasining 1-moddasida ayollarga nisbatan zo'ravonlik "ayollarga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan, jumladan jamoat yoki shaxsiy hayotda sodir bo'ladigan bunday harakatlar, majburlash yoki asossiz ozodlikdan mahrum qilish, ularga nisbatan zo'ravonlik bilan tahdid qilish kabi har qanday GAZ harakati" deb ta'riflanadi. Ayollar ustidan zo'ravonlik turli shakllarni olishi mumkin, jumladan turmush o'rtoqi yoki yaqin munosabatdagi shaxs (IPV) tomonidan jismoniy, jinsiy va/yoki psixologik zo'ravonlik, oilaviy zo'ravonlik, bu oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan zo'ravonlik, turmush o'rtoqsiz jinsiy zo'ravonlik bu turmush o'rtoqi/hamkor bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jinsiy zo'ravonlik, femitsid va ayollar savdosi hisoblanadi. Er yoki erkak yaqin hamkor (yoki erkak oila a'zosi) tomonidan sodir etiladigan zo'ravonlik global miqyosda ayollar ustidan eng ko'p uchraydigan zo'ravonlik shaklidir. 2018 yilda, JSST hisobotiga ko'ra, dunyo bo'ylab 15 dan 49 yoshgacha bo'lgan turmush qurgan ayollarning 27 foizi kamida bir marta yaqin hamkor zo'ravonligini boshdan kechirgan.

